



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

“YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO‘LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!”

VATANPARVAR

...Olamda ko‘p erur ibora,
Bir so‘z bor og‘riqdan iborat.
U – Vatan! Barchinim, u – Vatan!
Bolamga “Vatan” de ilk bora.

So‘zlagin eng yuksak tilakdan,
Bo‘taday bo‘zlagan yurakdan.
“Vatan” de...
Bolamning qoniga
Oqiblar kirsin u ko‘krakdan.

Usmon AZIM,
O‘zbekiston xalq shoiri



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA‘NAVIY-MA‘RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
4-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN
WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 15-MAY
№20 (3186)



Strategik vazifalar



MUDOFAA TIZIMIDA

Bugungi kunda dunyodagi geosiyosiy vaziyatning keskinlashuvi, turli mintaqalarda qurolli mojarolarning avj olishi hamda xavfsizlikka nisbatan yangi tahdidlarning paydo bo'lishi har bir davlatdan mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlashni talab etmoqda.

Ayniqsa, zamonaviy urushlar shakli an'anaviy yondashuvlardan mutlaqo farq qilib, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, uchuvchisiz uchish apparatlari, robotlashtirilgan qurol tizimlari va raqamli boshqaruv mexanizmlariga asoslangan yangi bosqichga o'tmoqda. Bunday sharoitda mamlakat xavfsizligini ta'minlash faqatgina zamonaviy qurol-aslaha bilan cheklanib qolmay, yuqori intellektual salohiyatga ega, tezkor fikrlaydigan va innovatsion texnologiyalarni boshqara oladigan harbiy kadrlar

shart-sharoitlar yaratish hamda harbiy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar zamirida mamlakat mudofaa qudratini mustahkamlash bilan birga, milliy armiyamizni zamon talablariga mos tizimga aylantirish maqsadi mujassam.

Ana shunday izchil islohotlarning mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev



tayyorlashni strategik vazifaga aylantirmoqda.

O'zbekistonda ham davlat xavfsizligi, hududiy yaxlitlik va xalq tinchligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. **Prezidentimiz rahbarligida so'nggi yillarda milliy armiyani modernizatsiya qilish, uning jangovar shayligini oshirish, harbiy xizmatchilar uchun munosib**

harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va armiyani raqamlashtirish bo'yicha taqdimot bilan tanishdi.

So'nggi yillarda dunyoda yuz berayotgan qurolli mojaralarda uchuvchisiz uchish apparatlari, robotlashgan tizimlar, radioelektron kurash vositalari va zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Bu esa nafaqat qurol-yarog' va harbiy texnikalarni yangilash, balki yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashni ham taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda mazkur yo'nalishda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Qo'shinlarda dronlarni jangovar qo'llash va ularga qarshi kurashuvchi yangi bo'linmalar tashkil etilib, uchuvchisiz uchadigan apparatlar operatorlari, muhandislar va robototexnika mutaxassislarini tayyorlash tizimi yo'lga qo'yildi.

Taqdimotda davlatimiz rahbariga mazkur mobil bo'linmalar faoliyati hamda ushbu yo'nalishda mutaxassislar tayyorlash tizimi yuzasidan hisobot berildi.

Harbiy ta'lim tizimini isloh qilish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. 2025-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan mazkur sohani rivojlantirish, zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega harbiy kadrlarni tayyorlash choralari ko'rildi. Natijada barcha oliy harbiy ta'lim muassasalariga institut maqomi berilib, yagona boshqaruv tizimi yaratildi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etildi.

Mazkur universitet nafaqat harbiy ta'lim tizimining markaziy bo'g'iniga aylanmoqda, balki sohada ilmiy tadqiqotlar, zamonaviy harbiy strategiyalarni o'rganish va xalqaro tajribani joriy etishda ham muhim o'rin egallamoqda.

Shu bilan birga, bakalavr darajasida harbiy kadrlar tayyorlashning mutlaqo yangi modeli joriy etilishi ham islohotlarning muhim qismi hisoblanadi. Unga muvofiq, kursantlarga an'anaviy harbiy fanlar bilan bir qatorda xorijiy tillar, axborot texnologiyalari va sun'iy intellektni chuqur o'rgatish tizimi yo'lga qo'yiladi. Bu esa kelajak ofitserlarining dunyodagi ilg'or harbiy tajribalarni o'rganishi, xalqaro hamkorlikda faol ishtirok etishi hamda zamonaviy raqamli qurol tizimlarini samarali boshqarish imkoniyatini oshiradi.

Qo'mondonlik-shtab ofitserlari uchun ham

mutlaqo yangi ta'lim mexanizmi joriy etilmoqda. Ilg'or xorijiy tajriba, bugungi qurolli to'qnashuvlar tahlili va zamonaviy boshqaruv usullari asosida ilk bor uch bosqichli yangi o'qitish tizimining yo'lga qo'yilishi ofitserlarning strategik fikrlash qobiliyatini kuchaytirish, tezkor qaror qabul qilish salohiyatini oshirish va har qanday murakkab vaziyatda samarali harakat qilish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, serjantlar tarkibini tayyorlash ko'lami ham kengaytirilmoqda.

Asosiy yangiliklardan biri – oliy harbiy ta'lim muassasalarida serjantlar uchun bakalavriatning oltita fuqarolik mutaxassisligi bo'yicha masofaviy ta'lim yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, aviatsiya va uchuvchisiz uchadigan apparatlar mutaxassislarini tayyorlash tizimi yanada takomillashtirilib, mazkur yo'nalishda Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarini o'qitish va ularga yagona sertifikat berish tartibi joriy qilinadi.

Bundan tashqari, taqdimotda armiyani raqamlashtirish va kiberxavfsizlikni ta'minlash masalalari ham ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimida keng ko'lamlı raqamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, aloqa infratuzilmasi tubdan modernizatsiya qilinib, qo'shinlar o'rtasida tezkor va xavfsiz axborot almashinuvini ta'minlaydigan zamonaviy kommunikatsiya tarmoqlari joriy etilmoqda. Shuningdek, himoyalangan ma'lumot almashinuvi kanallarini rivojlantirish orqali harbiy boshqaruv tizimining samaradorligi yanada oshirilmoqda.

Bu borada harbiy dasturchilarning mehnati ham alohida



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA



ahamiyatga ega. Ular tomonidan qo'shinlar faoliyatining turli yo'nalishlarini avtomatlashtirishga qaratilgan 50 ga yaqin axborot tizimi ishlab chiqilgan. Bu esa inson omilini qisqartirish, vaqtni tejash va boshqaruv jarayonlarini yanada shaffof hamda samarali tashkil etish imkonini bermoqda.

Xususan, mudofaa ishlari organlarida joriy etilgan "Chaqiruv" elektron axborot tizimi raqamli transformatsiyaning muhim namunasiga aylandi. **Mazkur tizim 19 ta vazirlik va idora bilan integratsiya qilinib, fuqarolar uchun 39 turdagi ma'lumotnomani onlayn tarzda olish imkoniyatini yaratdi.** Eng muhimi, chaqiruv tadbirlarini ilk bor to'liq elektron shaklga o'tkazish imkoni paydo bo'lib, bu jarayondagi ortiqcha qog'ozbozlik va vaqt sarfi sezilarli darajada qisqardi.

Harbiy tibbiyot sohasida ham raqamli texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Yagona tibbiy axborot tizimi va telemeditsina xizmatlarining yo'lga qo'yilishi harbiy xizmatchilarga tezkor va

sifatli tibbiy yordam ko'rsatish imkoniyatini kengaytirdi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "DMED" tizimi bilan integratsiya qilinishi tibbiy ma'lumotlarni tezkor almashish va tashxis jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda kiberxavfsizlik milliy xavfsizlikning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Shu bois zamonaviy xavf va tahdidlardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligida kibertahdidlarni o'z vaqtida aniqlash, tahlil qilish va ularning oldini olishga qaratilgan Axborot xavfsizligi monitoring markazi tashkil etildi. Mazkur markaz raqamli makonda harbiy axborot resurslarini ishonchli himoya qilish, ehtimoliy kiberhujumlarni bartaraf etish hamda axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Taqdimot yakunida **milliy armiyamizni yanada modernizatsiya qilish, uni zamonaviy texnologiyalar**

asosida rivojlantirish hamda mudofaa boshqaruvini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan istiqbolli rejalarga alohida e'tibor qaratildi.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda dunyo armiyalari o'rtasidagi raqobat nafaqat qurol-yarog' yoki jonli kuch bilan, balki intellektual texnologiyalar, raqamli boshqaruv platformalari va innovatsion ishlanmalar bilan ham belgilanmoqda. Shu bois milliy armiyani kelajak talablariga moslashtirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Taqdimotda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini yanada takomillashtirish, qo'shinlarni boshqarish jarayonlarida inson omilini kamaytirish va tezkor qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan qator takliflar ilgari surildi. Shuningdek, robotlashtirilgan va avtonom majmualardan foydalanish ko'lamini kengaytirish, ularni harbiy amaliyotga keng joriy etish orqali jangovar samaradorlikni oshirish masalalari muhokama qilindi. Bu esa kelajakda xavfli hududlarda inson ishtirokini kamaytirish, razvedka va maxsus operatsiyalarni yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Shu bilan birga, mudofaa sohasida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish bo'yicha ham kompleks chora-tadbirlar belgilandi. Bu orqali mahalliy ishlanmalarni ko'paytirish, milliy harbiy texnologiyalar salohiyatini oshirish va importga bo'lgan ehtiyojni qisqartirish maqsad qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi markaziy apparatida Raqamli texnologiyalar bosh boshqarmasi, Sun'iy intellekt texnologiyalari departamenti hamda Kiberxavfsizlik laboratoriyasini

tashkil etish rejalashtirilgani sohadagi islohotlarning yangi bosqichga chiqayotganidan dalolat beradi. Mazkur tuzilmalar harbiy sohada raqamli yechimlarni ishlab chiqish, sun'iy intellekt imkoniyatlarini kengaytirish va kiberhimoyani mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

Respublikaning barcha hududlarida uzluksiz va barqaror aloqa tizimini ta'minlash maqsadida Sun'iy yo'ldosh aloqa markazini tashkil etish rejasi ham strategik ahamiyatga ega. Bu mamlakatning istalgan nuqtasida tezkor axborot almashinuvini ta'minlash, favqulodda holatlarda ham aloqa uzluksizligini saqlab qolish imkonini yaratadi.

Mudofaa sohasida yagona raqamli siyosatni amalga oshirish maqsadida mudofaa vazirining raqamlashtirish, sun'iy intellekt va kiberxavfsizlik bo'yicha o'rinbosari lavozimining joriy etilishi ham muhim institutsional qadam bo'ldi. Shuningdek, harbiy okruglarda qo'mondonlarning aynan shu yo'nalishlar bo'yicha o'rinbosarlari lavozimlarini tashkil etish rejalashtirilmoqda. Bu esa raqamli transformatsiya jarayonlarini markazdan hududlargacha samarali muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Umuman olganda, bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar milliy armiyamizni nafaqat jismonan kuchli, balki intellektual, texnologik va strategik jihatdan ham mutlaqo yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Bu esa Yangi O'zbekistonning tinchligi, hududiy yaxlitligi va xalqimiz xavfsizligini ta'minlash yo'lidagi muhim qadamlardan biri sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi.

**Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
"Vatanparvar"**



Buyuk o'zbek yo'li



Usmon AZIM,
O'zbekiston xalq shoiri

Muqaddima

Haqiqiy yozuvchi-shoirlar haqiqatni yozishni xush ko'radi.

Dunyoning qaysi bir chetidagi adolatsizlik ularga xuddi o'zining uyida ro'y berayotgandek tuyuladi. Qaydadir adolatning barqarorligi yoki g'alabasi ularning ruhiyatini ko'taradi. Ular har bir yaxshi odamning muvaffaqiyatidan quvonadi, odamlarning muammolari esa ularning ham dardiga aylanadi.



Ular – vatanparvar. Har holda O'zbekistonda xuddi shunday. Vatanning gullab-yashnashi, ijobiy o'zgarishlar har bir fuqaroning hayotini yuksaltirish sari qo'yilgan qadam ekanini teran his qiladilar, kayfiyatlari ko'tariladi. Xudoga ming shukrki, bu o'zgarishlar har soatda, har kuni ro'y berib turibdi. Butun mamlakat harakatda. Eng muhimi, bu islohotlar jaydari tusda emas, balki jahonning eng ilg'or texnologiyalari asosida olib borilmoqda. Sharoitlar yaratilgani tufayli investitsiyalar bemalol kirib kelyapti. Rivojlanish shiddati butun mamlakatni qamrab olgan.

Qalam ahli bu va ko'plab boshqa yutuqlardan boxabar. Muammolarni bartaraf etish yo'lidagi sa'y-harakatlarni ham mudom sezib turadi.

Yaqinda bir guruh ijodkorlar bilan qo'shni do'st mamlakatda safarda bo'ldik. Bir kech o'z-o'zidan badiha davra tuzilib, suhbat gurullab ketdi. Avval mezbon mamlakatni O'zbekiston bilan taqqos qila boshladik. Baravariga "Biz oldinga ketibmiz" degan xulosaga keldik! Bugungi O'zbekiston haqida gaplashdik. Men yetmish olti yil umr ko'rganimni, ammo xalqimiz hech qachon bunday yayrab yashamaganini aytib qoldim. Davradagilar bu gapimni ham bir og'izdan tasdiqladi. Ha, shunday! Hech qachon bunday yashamaganmiz!

Yuraklarni faxr bilan to'ldirgan bu e'tiroflar qachon ko'nglimizni to'ldirdi?

Axir biz e'tirof etgan yutuqlar o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q-ku!

Uning ortida kimning mehnati-yu zahmati, betinim harakati yotibdi?

Mamlakatimizning barcha hududida yoyilgan bunyodkorlikka kim g'ayrat-shijoat bag'ishlayapti?

Savollarga javob bitta: bu olamshumul zafarlarning ortida bir kishining, ha, bir kishining – O'zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning fidokorligi turibdi.

Oz emas, ko'p emas, Yangi O'zbekistonni qurmoqchi bo'lgan shu azamat insonning misli ko'rilmagan fidokorligi!

Men bu inson haqida ko'p o'yladim. Oxiri bu odam haqida yozmasam, adolatdan bo'lmas ekan, degan qarorga keldim.

Yo'q, xushomad qilish niyatim yo'q. Nimaga xushomad qilaman? Yoshim bir joyga borgan bo'lsa, mukofot-u unvonlarni ham hech kimga likillamay olgan bo'lsam...

1

Bu islohotlar boshlanganda mamlakat qay ahvolda edi?

Odamlar qanday yashayotgan edi? O'zimning boshimdan o'tkazganlarimni bir eslay.

Men ko'p qavatli uyda yashayman. Uyimiz necha-necha qishlar bo'yi isimasdi. Bir farzandim keyinchalik "Shu uyda bir umr sovuq qotib ulg'aydik", deb esladi.

Nafaqaga chiqdim. "Ishlasang, nafaqangning yarmi to'lanadi", deyishdi. Nima deyman? Xo'p-da... Ko'pga kelgan to'y.

Maosh hemiri. Yarim pensiyaga qo'shib, oydan oyga arang yetkazamiz.

To'lov plastik kartasi bilan bog'liq mashmalarni-ku, aytmay. Do'konga borasan. Kerakli molning narxini so'raysan. "Naqd olsangiz, sakson so'm, plastik karta bilan to'lasangiz, yuz..."

Denovda – bozorning naq o'rtasida "plastik kartadagi pulni naqdga almashtirish punkti" ochildi. O'sha bezbet shaklda – yuz so'm yechib olsa, sakson so'm qo'lingga beradi. Eng dahshati, bu "punkt"ni bunday hollar yuz bermasligini nazorat etuvchi tashkilotlarning odamlari yuritdi. Dodingni kimga aytishni bilmaysan...

Bu lo'ttibozliklar butun xalq ko'z o'ngida ro'y berdi. Hech kim miq etolmadi. Qo'rquv. Bu qo'rquvdan yaralgan taqdirsizlik – ertani o'ylashdan cho'chish – mudom yelkadan toshday bosib turdi.

Qarz ko'tardim. Dollarda qarz berganlarga dollarda qaytarib berish kerak. Bank kassalarining yoniga ham borolmaysan. Banklar dollarni sotuvga chiqarib, o'zi sotib olib yotibdi. Odamlarini qo'yib qo'ygan – allaqanday shang'i xotinlar...

Bozorga borasan. Har qadamda "dollarchi"lar shaykasi... Dollarning narxi rasmiy kursdan ikki barobar baland. Ko'r bo'lib olasan.

Surxondaryoda g'alla yetishtirgan bir tadbirkor menga uchrashib, g'allasini topshirganini, ammo haqini yeb ketishganini aytdi. Men

SOZLAR BIRYO

bir-ikki amaldorga aytgan bo'ldim. Biror natija chiqmadi. Tadbirkor shu xo'rlikning jabridan o'lib ketdi...

U-bu joylardagi o'zgarishlar odamlarning dasturxoniga yetib kelmadi. Mamlakatni fribgarlar bosdi.

Bu ishga qarshi kurashishi zarur bo'lgan tashkilotlar davlat ichida davlat tuzdi. Odamlar ustidan zo'ravonlik joriy etildi.

Masalan, Surxondaryoda xavfsizlik xizmati allaqanday fashistik (*boshqa so'z ularning qilmishini ifodalab berolmaydi*) tizim o'rnatdi. Odamlarni pashsha o'rmda ko'rmadilar. Xo'rladilar, mulklarini tortib oldilar, misli ko'rilmagan qiynoqlarga soldilar, o'ldirib ham yubordilar. Qiynoqlarning Stalin zamonida kechgan usullarini qo'lladilar. Ularni yanada yangi "pog'ona"larga ko'tardilar.

- Tirnoqlarimni sug'urib oldilar, - deb zorillab eslaydi ularning qo'lga tushgan bir begunoh. - Hammasini baravar sug'ursalar ham mayli edi, har kuni bittasini sug'uradilar...

Hatto hokimlarga ham tazyiq o'tkazildi. Bu yurtida ular ham ishlashdan bezib qoldi. Noiloj ishdan ketish haqida ariza yozdilar.

Mustaqillikdan odamlarning ko'ngli qoldi.

Bitta-yarim tanishlar menga ham ta'na qila boshladi: "Ana siz orzu qilgan - istiqloq..."

Rosti, men ham bebaxt yashadim. Gazeta-jurnallarda yozganlarimni nashr etish nari tursin, ism-familiyamni ham o'chirib tashlaydigan bo'lishdi. Men nima qilgan edim? Bir ko'rsatuvda "Birovlar harom-xarish yo'l bilan pul to'playapti. Payti kelgach, pulini ko'tarib, xorijga jo'nab ketadi" degan rost gapni aytgan edim xolos. Bu ko'rsatuv tufayli televideniyaedagi necha-necha ijodkorlar jazolandi, ishdan ketdi...

Tan olaylik, mustaqillikning ilk davrida yangi tizimli mamlakatni bunyod etish, nochorlikdan qutulish uchun bir qadar qattiqqo'llik ham zarur edi. Ammo mamlakat rivojlanib borgan sari bu qattiqqo'llik o'rnini adolat o'lchamlariga mos yo'riqlar asta-asta egallab borishi kerakligi ham barchaga ayon edi. Biroq bunday bo'lmadi. Chunki eng tepadagi odam ham nayrangbozlarning qo'lida asirday yashadi. Joylarda ro'y berayotgan, hatto o'z oilasida ro'y berayotgan voqealardan ham g'afldatda qoldi. Barcha adolatsizliklar sir tutildi.

Yuqorida yozganlarimni hech kim rad etolmaydi. Ularni bor bo'yicha ko'rsatish uchun esa necha jildlab kitoblar yozilsa bo'ladi. Men faqat boshimdan o'tkazganlarimning va tug'ilgan yurtim Surxondaryoda ro'y bergan mash'um voqealarning bir qisminigina eslayapman.

Avj olgan muammolarni bartaraf etish yo'llarini hech kim bilmasdi.

Biroq Parvardigor bilguvchidir! U mamlakatni rivojlanish sari yo'naltirish uchun nima qilish kerakligini aniq bildi.

Mamlakat Prezidentligiga Shavkat Miromonovich Mirziyoyev saylandi va... birdan mo'jizalarga o'xshash hodisalar ro'y bera boshladi.



Aytib o'tganim - ko'rgiliklar bitta-bitta yechimini topib ketaverdi. To'lov plastik kartalari risoladagiday ishlay boshladi. Pensiyalar to'liq beriladigan bo'ldi. Banklar yangicha ishlash tizimiga o'tdi: xohlasalaring, mana so'm, istasalaring dollar, marhamat... Surxondaryodagi odam qiyofasidagi hayvonlar ham jazosini oldi. Ammo bu yechimlarni topish uchun qanchalar sabot va jasorat kerak bo'lgani faqat va faqat Shavkat Miromonovichning bir o'ziga ayon. Axir qalamga olganim hodisalardan tashqari, uning zimmasida yana qancha-qancha tashvishlar bor edi.

Birgina Surxon xalqini zor qaqshatgan mustaqillikning zararkunandalari shaykasini tugatish naqadar qiyin bo'lganini tasavvur qilaman. Axir ular osmondan tushmagan - bu gumrohlarni Toshkentdagi martabasi baland, beli baquvvat, birovni nazar-pisand qilmaydigan homiylari qo'llab-quvvatlab turardi. Bu jinoyatchilar to'dasining ko'lami juda katta - bir-biri bilan zich bog'lanib ketgan, xalqning manfaatiga degan muqaddas tushunchani tushida ham ko'rmagan, odamlar hayotini xasdan ham arzon bilgan bedavolardan iborat edi. Avval mana shu to'daning boshi kesildi. Bu ish oson bo'lmadi. Bo'shangroq bir odam bo'lganda, ular bilan murosayi madora etib ketaverardi. Ammo Shavkat Miromonovich bunday qilishni o'ziga ep bilmadi. Chunki o'rtada Vatan, xalq taqdiri bor edi. Bo'lajak Vatanni bunday to'dalarga panja orasidan qarab emas, balki bu toifa noqisllardan tozalab, pokiza niyat va ezgu harakatlar bilan yaratish lozimligini Shavkat Miromonovich mudom his etib turardi.

Vatanni halol odamlar yaratishini bu inson juda teran tushunadi.

Qotillik illati yuqqan bu kaslardan el-yurt ozod qilindi. Avval "tepa"dagi, keyin pastdagi qatlam ildizi bilan sug'urib tashlandi. Bu gaplar aytishga oson...

Mamlakatimiz tarixida ushbu voqealar kimgadir juda kichik epizod bo'lib tuyular, ammo Vatanni xalqning boshiga chiqib olgan bunday jirkanch to'dalardan ozod etish uchun rahbarimizga qanchalar matonat va qat'iyat kerak bo'lganini bir tasavvur qilib ko'ring!

Esimda: bu voqealar nihoyasiga yetkazilgach, Prezidentimiz Surxonga tashrif buyurib, "Surxondaryo xalqi, endi ozodsan!" deb elga murojaat etgan edi.

Haqiqatan, Surxondaryo erkin nafas oldi.

Men faqat yaxshi bilganim - Surxondaryo haqida zo'ryapman. O'zbekistonda esa o'n to'rtta ma'muriy-hududiy birlik bor. Prezidentimizning ulardagi muammolarni hal etishdagi mardonavor sa'y-harakatini qalamga olish uchun esa bu maqola kichiklik qilishini sezib turibman.

2

Odamlar yaxshilikka tez ko'nikadi. Bir-ikki "Yaxshi bo'ldi-ye!" deb quvonadi-yu, keyin xuddi hamisha shunday bo'lganday o'tib ketaveradi. Nazarimda, shunday bo'lgani ham durust! Odamlar odamga o'xshab yashashni o'rganyapti! Munosib yashash mo'jiza emas, shunchaki har kuni biz yuzma-yuz duch keladigan voqelik ekaniga ko'nikib boryapmiz-da!..

Ammo men rivojlanish jarayoni shu qadar jadal borayotganidan baribir quvonaman.

Avliyolar, olimlar maskani bo'lgan Termiz esimni bilganimgan buyon ko'rimsiz, chang-to'zonga qorishgan, soya-salqindan yiroq - yopiq harbiy shaharcha edi. Unga kirishning o'zi ham bir mashaqqat - harbiylarning posti o'rnatilgan, har bir yo'lovchining pasporti sinchiklab tekshiriladi, agar Surxondaryo hisobida bo'lmasangiz, o'tib ko'ring-chi!

Mustaqillikdan keyin esa xabaringiz bor, bunday tekshiruvlar yanada avj oldi. Endi har bir viloyat o'rtasida sun'iy to'siqlar - postlar o'rnatildi. Bu holat xalqimizning mamlakatimiz bo'yab erkin harakatlanishiga xalal beradigan ortiqcha mashmasha edi. Pasportni unutmagan bo'lsangiz, bu postlardan o'tishning yagona yo'li - imkonini topib, "posbon"larga pora berish edi... Boshqa ilojingiz yo'q. Nazarimda, bu postlar xuddi shunday vaziyat yaratish uchun qo'yilgan tuzoq edi...

Surxondaryoda esa bu holat yo'lovchini jiddiy tahlikaga soladigan darajada murakkab edi. Viloyatga kirishda - Darband postida xuddi xorijga ketayotganingiz kabi bor-yo'g'ingiz tintilar, yuklaringiz esa lentaga solinib, lazerli uskunalar yordamida ko'zdan kechirilardi. Bu ham yetmagandek, jomadon-u sumkalar ham ochtirilib, tekshirilardi... Tintuv. Xullas, pora bermasangiz, qutulib bo'psiz.

Termizga va Sariosiyoga kiraverishda yana shu holga duch kelinar edi.

Bu to'siqlarning hammasi Shavkat Miromonovichning bir shashti bilan yo'q bo'ldi.

Chang-u g'uborga qorishgan Termiz ham birdan o'zgara boshladi.

Hozir bu shahar ko'chalarining ikki chetida manzarali daraxtlar soya tashlab turibdi. Ketgunicha yam-yashil chimzor. Gullar ajib did bilan ekilgan. Yaqinda mehmonxonadan mashinada chiqib, mana shunday go'zal - bir qarich ham uzilmagan manzarani oralab, aeroportgacha bordim. Xorijiy kurort shaharchalarni eslatadi. Yangi qurilgan shinam, ko'rkam imoratlar ham yarashiqli. Menga o'qituvchilardan biri "Odamlarning uy-joyga ehtiyoji to'liq ta'minlangan, bir xonadonda ikki-uch oila tiqilib yashashdan qutulgan", deb qoldi. Amaldor emas, o'qituvchi aytdi!

Termiz esa o'syapti. Baland-baland binolar qad ko'taryapti. Hatto shahar erkin nafas roslab, tiqilmay kengayishi uchun qo'shimcha yerlar kerakligi ko'zga tashlanib qoldi. Shavkat Miromonovich bu masalani ham hal qilib berdi - shaharga qo'shimcha joylar ajratildi.

O'quvchida "Surxondaryoda faqat Termiz gullab-yashnayotgan ekan" degan taassurot qolmasligi uchun aytib qo'yay, viloyatlardagi barcha tumanlar o'zgacha qiyofa kasb etgan. Chamasi, besh-olti yil avval bir guruh san'atkorlar bilan Surxonning shimoliy hududlari sari ketayotgan edik. Yo'lda birzum chalg'ibman. O'zimga kelib qaragam, bir notanish shaharning yonidan o'tyapmiz. Ko'p qavatli uylar, orasida orasta yo'laklar, daraxtlar, bolalar o'ynaydigan maydonchalar lip-lip o'tadi. Qayerga kelib qoldik? Surxondaryoning har bir qarich yerini bilaman. Nahotki, tush ko'rayotgan bo'lsam? Bir oz yurgach, angladim: bu - Denov. Ha, o'zim boshdan-adoq kezib-bilib yurganim Denov! Ey Xudo! Bu shahar ichidagi shahar - mo'jiza qachon, qanday barpo bo'ldi? Shuncha tezmi? Angladim - bu mo'jiza Prezidentimizning shijoati tufayli bunyod bo'lgan! So'ng tasavvur qildim: mamlakatda qancha tuman bor, qancha shahar bor, boringki, mahallalar bor... Barchasida mana shunday bunyodkorlik ketayotgan bo'lsa kerak-da! Ketyapti!

Butun mamlakatda bunday yoppa bunyodkorlikni qaysi qudrat harakatiga keltiryapti? Bu savolga javob aniq: Shavkat Miromonovich Mirziyoyev!

3

Men majlislarda kam qatnashaman. Maqsad majlis o'tkazishdangina iborat bo'lgan yig'inlardan o'zimni tortaman.

Ammo yaqin kunlarda ikki majlisda qatnashib, vaqt qanday o'tganini sezmadim. Zavqlanib o'tirdim. O'zbekistonni sevadigan bir vatanparvar sifatida faxr-u quvonchga to'ldim. Gap Vatanimizning bir bo'laki bo'lgan Surxondaryoning ertasi haqida ketdi. Prezidentimiz viloyatda 2030-yilga qadar amalga oshiriladigan rejalar haqida so'zladi.

Majlisda rejalar haqida shunchaki gapirilmadi, balki uni amalga oshirish uchun puxta, ko'lamli va aniq tayyorgarlik ko'rilgani ma'lum bo'ldi. Masalan, mana bu tarzda: reja loyihasi tayyor, mablag' bor (*bank boshlig'i tasdiqlaydi yoxud jahondagi qaysi investor bilan kelishilgani aytiladi*), bu rejani amalga oshiradigan tashkilot ham shay turibdi. Ishni qachon boshlash sanasi ham avvaldan aniqlangan. Mutasaddilar yana bir bor majlis ahli oldida axborot berdi. Har bir loyihada qancha ish joyi ochilishi ham ochiqlab borildi. Yuzlab, minglab...

Har bir reja haqida so'z ketganda, shu tartib amalga oshirildi. Biror bir ishni bajarish orzu sifatida aytilmadi. Aksincha, qat'iy ishonch bilan axborot berildi.

Bu rejalarining bir uchi xorijga borib qadalganda esa onlayn tarzda majlisda qatnashayotgan elchilarimiz chet ellik hamkorlar hozir turganini, O'zbekistondan imo bo'lgach, shu zahotiy oq uchib borishini ma'lum qildi. Xorijlik hamkorlar ham unday-bunday mamlakatlardan emas – Xitoydan tortib, Janubiy Afrika Respublikasigacha!

Shavkat Miromonovich hech narsani unutmadi. Prezidentimiz bugun nima ishlarni bajarish lozimligini, ertaga nimani amalga oshirish kerakligini ichki – ongosti tuyg'u bilan his qilishini shundoq sezib turdim.

Katta-yu kichik muammolarning yechimini topishda bir xil mas'uliyat bilan yondashishiga, ba'zan badihalariga ham guvoh bo'ldim.

Majlisdan avval boysunlik – kurash bo'yicha birinchi jahon chempioni Toshtemir polvon Muhammadiyev bilan yosh kurashchilar uchun ochilgan internat haqida suhbatlashgan edik. Majlis so'ngrog'ida Prezidentimiz ana shu polvonga murojaat qilib qoldi:

– Sening internatning maktabi yo'g'a?

– Yo'q, – dedi polvon.

– Bolalar qayerga o'qishga boradi?

– Shu atrofdagi qishloqlardagi maktablarga.

Shavkat Miromonovich ko'zi bilan zaldan kerakli odamni izlab topdi:

– Puling bor-a?

– Ha, – deb o'rnidan qo'zg'aldi

“kerakli odam”.

– Shu polvonning internatiga maktab qurib berolasanmi?

“Kerakli odam” jon deb rozi bo'ldi.

– Birinchi sentabrgacha tayyor bo'lsin! – dedi Prezidentimiz.

Zavqlanganimdan sekingina bo'lsa-da, “Voyal!” deb yubordim. Axir Shavkat Miromonovichning yelkasida qariyb o'ttiz to'qqiz million nufusli xalqning tashvishi turibdi! Mamlakatda eh-he qancha maktab bor! Endi kelib-kelib, Prezidentimiz Toshtemir polvonning maktab-internati muammosini eslab o'tirsa!..

Yig'inda menga ham so'z berildi va men bu majlisni surxondaryoliklar uchun bayram deb atadim. Chunki tushunishimcha, Vatan degan muhtasham imorat rivoji uchun qo'yilgan har bir g'isht – bayram. Bugun esa qanchadan qancha g'ishtlar qo'yildi!

Bu majlisda aytilgan va kelgusida amalga oshiriladigan har bir reja yurt xazinasi qanchalar boyishi, odamlar



Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasidagi bu ittifoqchilikning, bag'rikenglikning va mehru muhabbatning bosh me'mori Shavkat Miromonovich ekanini hozir barcha ko'rib turibdi. Xorijliklar ham bu mintaqani rivojlanish sari boshlab boradigan kuch sifatida O'zbekistonga qaramoqda.

xonadoniga qanchalar fayz-u baraka olib kirishi haqidagi raqamlarni eslab o'tirmayman. Chunki ular matbuotda yetarlicha yoritildi.

Ammo bir qutlug' xabarni aytmam bo'lmaydi.

Yigirma oltinchi aprelda Boysunga boradigan bo'ldim.

Termizdan keladigan yo'l manzilga olti-yetti kilometr qolganda yuqoridagi majlisda tilga olingan – bir necha yillardan buyon qurilishi davom etayotgan Darband – Denov trassasiga qo'shiladi. Biz bo'lajak trassaga tushdik. Pishiq qilib ishlangan beton yo'l. G'izillab ketyapmiz. Faqat ikki joyda gavarasi ko'tarilib, qurilishi nihoyasiga yetmagan ko'priklarni aylanib o'tdik xolos. Ichimda “Bir-ikki oyda bitib qolar”, deb o'yladim.

To'rt kundan keyin “Boysun bahori” festivalida qatnashish uchun shu yo'ldan yana o'tishga to'g'ri keldi. Bu safar mashinamiz tayyor bo'lgan ko'priklar ustidan g'izillab o'tib ketdi! Ha, tayyor bo'lgan ko'priklar ustidan! Oradan faqat to'rt kun o'tib!.. Yana ruhimni quvonch seli bosdi! Qoyil! Va Termizdagi majlisda aytilgan barcha rejalar o'z muddatida bajarilishiga ishonchim komil bo'ldi.

Prezidentimiz yig'in so'ngida shu taxlit rejalar bilan barcha viloyatga va Qoraqalpog'istonga borilishini ta'kidlab o'tdi! Yana mamlakat kelajagini barpo etish yo'lida ommaviy jadal harakat! Birzum bo'shmaydigan, el dasturxoniga baraka beradigan rejalar. **Bu rejalarining asoschisi Shavkat Miromonovich ham birzum tinim bilmaydigan, mudom xalq manfaati uchun kuyib-yonadigan inson! Ezgu niyatlariga farishtalar omin deydi! Parvardigor rahmat eshigini ochadi!**

Men yaqin kelajakda yurtimizning eng ilg'or mamlakatlar qatoridan o'rin olishiga ishonaman. Bu ishonchimga qo'shilmaydiganlar bo'lsa, Jahon bankining O'zbekistonning rivojlanish sur'ati haqidagi raqamlariga murojaat etsin. Bank 2026-yilda mamlakatimiz yalpi ishlab chiqarish sur'atini 7,7 foiz etib, prognoz beryapti. Xorijlik mutaxassislarning fikricha, o'n-o'n ikki yildan keyin O'zbekistonning yalpi ishlab chiqarishi trillion dollardan oshar ekan! Trillion! Bular osmondan olingan emas, aniq faktlar tahlili asosida yuzaga kelgan raqamlar! Ko'z tegmasin!

Uzr, xorijlik mutaxassislarni ham xijolat etib qo'yyapmiz! Yuqoridagi raqamlarni yozgandan keyin hozirgina o'qib qoldim: o'sishimiz sur'ati ularning taxminidan juda yuqori – 8,7 foizdan ziyod ekan!

4

Dunyoning ulug' donishmandlari insoniyatni tutib turgan qadriyatlar haqida oxir-oqibat yagona xulosaga kelgan. Insonlar, xalqlar, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarga o'zi ham aralashib, ne-ne g'avg'olarni boshdan o'tkazgan Alisher Navoiy bir kuni mana bunday satrlarni bitgan:

**Olam ahli, bilingizkim,
ish emas dushmanlig',
Yor o'lung bir-biringizgaki,
erur yorlig' ish.**

Bu bayt ma'nosini barcha anglab turgan bo'lsa ham mayli, sharhlab qo'yay: “Dunyo odamlari, – deyapti shoir, – bilib qo'ying: dushmanlik yaxshi ish emas. Bir-biringiz bilan do'st bo'ling, insonga faqat do'stlik yarashadi”.

Shavkat Miromonovich, nazarimda, hali Prezidentlik lavozimiga saylanmasdan oldin ham “dushmanlig' ish emas” ekanini chuqur tushungan. Markaziy Osiyodagi qondosh-jondosh mamlakatlar o'rtasida avj olgan noxushliklarni yuragi achishib kuzatgan. U boshqargan Vazirlar Mahkamasining vazifasi xo'jalik yuritish bo'lgani uchun qo'shnilar bilan munosabatimiz yomonligi tufayli rivojlanish imillayotganini teran his qilgan. Eng muhimi, bu g'alvalardan odamlar ham azoblanayotganini o'z ko'zi bilan ko'rgan.

Albatta, shunday bo'lgan! Shu bois Shavkat Miromonovich mamlakat boshqaruvi jilovini o'z qo'liga olgach, birzum tin olmay, avvalo, qo'shnilar bilan qardoshlik-qarindoshlik rishtalarini tiklay boshladi. Bu ish qancha og'ir-yengil kechgani faqat shu ezgu niyatli odamning o'ziga ma'lum. Ammo natija qutlug' – qo'shni mamlakatlarga yo'limiz tushsa, O'zbekistonning bir fuqarosi sifatida biz ham izzat-hurmat ko'ryapmiz.

Surxondaryo viloyati uchta mamlakat bilan chegaradosh. Sho'rolar davrida, masalan, Tojikiston bilan O'zbekiston o'rtasida chegara bor-yo'qligi esimizga ham tushmasdi. Termiz yopiq shahar bo'lgani uchun Dushanbega ham uchib borib, Surxonga o'tib ketaverardik. Ba'zilar kattaroq bozor-o'charini Dushanbega borib qilardi... Ammo mustaqillikdan keyin bir muddat o'tgach, hamma o'ziga xon, o'ziga bek bo'lib oldi. Chegaradan o'tish ushalmas orzuga aylandi!

Hozir tarixga aylangan boshog'riq bu kunlardan bir shingil voqeani kuni kecha hikoya qilib berishdi. Sariosiyoda yashaydigan bir kexsa ayolning Regardagi singlisi vafot etganda jigarining qabrini ziyorat etish uchun sakkiz yil urinib, chegaradan o'tolmagan ekan. Regar bilan Sariosiyoning orasi, ha boringki, yarim soatlik yo'!

Ikki mamlakat o'rtasida do'stlik-birodarlik munosabatlari o'rnatilgach, qarindoshlar bu uzoq ayriliqdan so'ng yig'lab-siqtab yuz ko'rishdi. Dushanbedan shuvullab mashinalar Surxondaryoga keladigan, uch-to'rt sariosiyolik do'stlar “Dushanbeni bir aylanib kelaylik”, deb yo'lga chiqadigan bo'ldi. Bir qadam yo'! Ertalab borib, kechqurun qaytib kelasiz!

Tojikistonni boshqa hududlar, qo'yingki, jahon bilan bog'lovchi asosiy yo'llar yurtimiz orqali o'tadi! Endi bunday imkoniyatlarga ega tojik xalqining xurramligi nechog'liq bo'lganini tasavvur eting!

Shu sababdan Shavkat Miromonovich bu qo'shnilarimiz yurtiga tashrif buyurganda, Emomali Rahmon sahnadan turib, hazil aralash juda zo'r lutf etgan edi: “Bular, – dedi u zalni to'ldirib o'tirgan tojik xalqi vakillariga ishora etib, – sizni mendan ham ortiq yaxshi ko'radi!” Mana, hurmat! Mana, qardoshlik!

Prezidentimizning bu tashrifidan so'ng bir muddat o'tgach, besh-olti yozuvchi jam bo'lib, Dushanbega bordik. Maqsadimiz – Boysunda



tug'ilgan do'stimiz, Tojikiston xalq yozuvchisi Sattor Tursun vafoti munosabati bilan yaqinlariga hamdardlik bildirish edi. Yoz kunlari. Egnimizda yozlik engil-bosh... Aeroportda esa bizni o'n-o'n besh chog'li kishi – oppoq ko'ylak, qora kostyum-shim kiygan tojik do'stlarimiz kutib oldi. Ertasi kuni kutilmaganda Tojikiston Yozuvchilar uyushmasida qardosh adabiyotlarimiz aloqalari haqida konferensiya o'tkazildi. Yana hamma o'sha rasmiy kiyimda. Ko'chada esa yoz... Birodarlar, bu tarzda majlisning nomini izzat-ikrom deydilar! O'zbeklarga izzat-ikrom!

Bizni Surxondaryoga olib ketgani yurtimizdan og'aynilar keldi. Men yo'lda qanday ketsak bo'ladi, avtomobillarni haydovchilar qaysi tezlikda haydasa ma'qul, militsiyalar to'xtatsa, qanday muomala qilish kerak deb so'rab qoldim. Har holda mashinalarimiz raqami O'zbekistonniki-da! Tojik do'stlarning javobi meni hayron qoldirdi:

– Har qanday tezlikda haydayveringlar! Militsiyalar to'xtatmaydi! Prezidentimiz "O'zbeklar – mening mehmonim, ularga hech kim teginmasin!" deb yuqori minbarda aytgan.

Qalay?

Bu gaplar o'zbek xalqiga hurmatning eng cho'qqisi edi.

Ikki xalq o'rtasidagi bu izzat-hurmatning qaytishi, yanada yuqori darajaga ko'tarilishi Shavkat Miromonovichning jonkuyarligi, samimiy – diplomatik mahorati va insoniy fazilatlarini bilan bog'liq edi.

Yaqinda atoqli o'zbek shoiri Shavkat Rahmon tavalludining 75 yilligini nishonlash uchun O'sh shahriga bir guruh ijodkorlar bilan yo'lga chiqdik. Ilgari ham O'sh safarida bo'lganman. Chegara mashmalarini o'ylab, ko'nglim xijil bo'lib borayotgandim. Ammo bezovtalikka o'rin yo'q ekan. O'zbekiston fuqaroligiga oid hujjatlarimizni ko'rsatib, bemaol o'tib ketaverdik. Qirg'izlar ham yurtimizga shunday kirib kelyapti.

Bu bemaollikni yaratgan, ikki xalq o'rtasida ishonch va haqiqiy do'stlikni qayta barpo etgan insonlarni alqadik. Axir bu ikki qo'shni xalq o'rtasidan nimalar o'tmagan edi!

Shavkat Rahmonning yubileyiga bag'ishlangan ijodiy kecha nihoyatda baland saviyada o'tdi. Majlisda Qirg'iziston hukumatining

bosh kotibi, nufuzli TURKSOY tashkiloti rahbari, O'sh shahri hokimi qatnashdi va nutq so'zladi. Shavkat Rahmon o'qigan maktabga va shaharning katta ko'chalaridan biriga shoir nomi berildi.

Albatta, bu katta shoir shunday ehtiromga arziydi. Shubha yo'q. Ammo baribir bu samimiy ehtiromning sababchisi Shavkat Miromonovich ekanini ham har daqiqada his qilib turdik.

Kamina Qozog'iston safarida bo'lganimda do'stlarning xuddi shunday mehriqamga duch keldim. Bir emas, bir necha mukofot bilan taqdirlandim. Hatto xorijiy bir mamlakatning adabiy mukofoti ham qozoq do'stlarimizning tavsiyasi bilan menga topshirildi. Agar munosabatlarimiz avvalgiday g'arazli kechganda, shunday hol ro'y berarmidi?!

Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasidagi bu ittifoqchilikning, bag'rikenglikning va mehr-u muhabbatning bosh me'mori Shavkat Miromonovich ekanini hozir barcha ko'rib turibdi. Xorijliklar ham bu mintaqani rivojlanish sari boshlab boradigan kuch sifatida O'zbekistonga qaramoqda.

Men, asosan, azaliy yaqin qo'shnilarimiz bilan munosabatlar haqida yozdim. Har kuni o'zgarayotgan bu chigal dunyodagi boshqa mamlakatlar bilan munosabatlarimiz ham aytishga arzigulik ekanini ta'kidlab o'tmoqchiman. Masalan, Afg'oniston bilan yetarli darajada aloqalar o'rnatganmiz. Axir bu mamlakat orqali okeanlarga chiqish orzumiz bor!.. Hozir shundoq Amudaryodagi ko'prikdan o'tib, o'zbek tuprog'iga qadam qo'yilgan joyda "O'zbekiston – Afg'oniston chegaraoldi savdo hududi" bunyod etilgan. Qator-qator do'konlar, mehmonxonalar, oshxonalar... Savdo-sotiq avjida. Hudud to'lib-toshib ketyapti. Prezidentimiz bu hududga yana qo'shimcha yer ajratish haqida topshiriq berdi.

Albatta, bu yon qo'shnilarimiz ham O'zbekiston rahbari sha'niga iliq so'zlar aytgani-aytgan...

Dunyoda haqiqiy obro'ga ega bo'lish oson ish emas. Bu rutbaga iste'dodli, o'zini ayamay mehnat qiladigan, farosatli, boshqalarning ham manfaatini hurmat etadigan, o'z mamlakatini ham jonidan yaxshi ko'radigan siyosiy arboblarga sazovor bo'ladi.

Mana shunday obro'ga ega bo'lganlardan biri esa bizning Prezidentimiz – Shavkat Miromonovich! Ha, o'zimizning Prezidentimiz!

5

Mamlakatimizdagi o'zgarishlarning oqimi juda katta. Ularning hammasi "Men – o'zbekman!" deganlarni quvontiradi.

Masalan, keyingi oylardagina ro'y bergan qator yangiliklar hali-hanuz meni hayratga solib kelyapti.

Agar ikki-uch yil avval birov "Barchamizning jonimizga tekkan shu paxtadan sakson-to'qson sentnerdan hosil olinadi", desa, kamina "Qo'ysang-chi", deb kulishi aniq edi. Ammo xuddi shunday bo'ldi! Yana qayerda deng? Sirdaryoda! Bu viloyatda talabaligimda paxta terganman. O'rtacha yigirma sentnerdan hosil olinsa, do'ppi osmonga otildim! Endi esa... Odam ishonmaydi. Hatto dehqonlarning o'zi ham chanoqlar boshdan adoq ochilgan paxtazorga qarab, hayrat bilan gapirganiga guvoh bo'lganman. Xorijdan urug'lik keltirildimi? Keltirildi. Ammo o'zimiz ham qarab turganimiz yo'q. "Porloq" navli g'o'zamiz xorijiy navlardan ortiq bo'lsa ortiq, lekin kam emas!

Bir jumla bilan bilan aytilganda, paxtachilikda inqilob ro'y berdi!

Hayratlanarli yana bir voqea.

Olmaliqda 3-mis boyitish fabrikasi ishga tushirildi. Bunday fabrikalar qurilib, ishga tushirilish jarayoni butun jahonda o'n yilga cho'zilar ekan. Bizda esa to'rt yilda (*ha, to'rt yilda!*) amalga oshirildi. Bu muddatga hatto o'zimizning eng katta mutaxassislar ham, amerikalik hamkor ham ishonqiramagan ekan. Mana shu amerikalik endi butun jahonni O'zbekistonning bu tezkor tajribasini o'rganishga chaqirdi.

Yana bir hayrat. Faqat men emas, hali o'zbeklarning necha-necha avlodi g'ururlanadigan mo'jiza – Islom sivilizatsiyasi markazining bunyod etilishi. Bu markaz ajib did bilan qurilgan koshona. Devorlarida qo'l bilan ishlangan naqshlar, butun dunyodan yig'ib kelingan – ilgari o'zimizdan olib chiqib ketilgan noyob eksponatlar, Usmon Qur'oni, qadimiy qo'lyozmalar... Ularni namoyish etish uchun eng zamonaviy texnologiyalarning qo'llanishi...

Shavkat Miromonovich markazning qurilishi haqida qiziq tushuntirish berdi: "Bu markazning qurilishida shoshmadik. Sakkiz yilda oxiriga yetkazdik..."

Bu izoh menga juda yoqdi. Chunki navbatdagi bir imorat emas, balki san'at asari qurilayotgan edi! San'at asari yaratilishiga xuddi shunday sabr-toqat bilan yondashiladi! Prezidentimiz mana shu noziklikni anglagan!

Xullas, asrlarga tatigulik inshoot dunyoga kelgan.

Men internetda bu mo'jizani tomosha qilish uchun borayotgan ikki kishining suhbatini eshitdim.

– Sen, – dedi ularning biri imorat bor bo'yicha ko'ringach, – Tojmahalni ham ko'rgansan. Qaysi zo'r?..

– Bu zo'rov, – dedi hamrohi binoga nazar tashlab. So'ng ishonch bilan bir qarorga keldi. – Bu zo'r!

Tamom, vassalom! Bu zo'r!

Bunday bunyodkorliklar haqida yozaversam, ado bo'lmaydi shekilli.

Bugun internetni ochdim.

Mana, tilga olingan yangiliklar: Toshkentdan Xorazmga yo'l olgan "Jaloliddin Manguberdi" tezyurur poyezdi, Toshkent viloyati markazidan Bekoboddan aylantirilib, Yangiyerga boradigan yangi 111 kilometrli yangi temiryo'l qurilishi, Samarqandga boradigan yangi tezkor yo'l, Toshkentdagi yangi aeroportdagi asosiy ishlarning boshlanishi...

Nazarimda, hayratlarimning endi cheki bo'lmaydi.

SO'NGSO'Z O'RNIDA

Sport ishqiboziman.

Ishqibozligimni biladigan Xayrulla degan jurnalist ukam – to'qsoninchi yillarning oxirida bo'lsa kerak, futbol gazetalaridan biriga intervyu olib qoldi.

– Mana, Yaponiya futbol jamoasi jahon chempionati finaliga yo'llanma oldi, – dedi u. – Biz qachon jahon chempionatiga chiqamiz?

– Endi, – dedim men atrofimdagi voqealarni birzum ko'z oldimga keltirib, – mamlakatimizning Yaponiyaga mengzab rivojlanishini kutamiz-da, ukam!

Orzumizga erishdik.

Futbolchilarimiz final yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Demak... Yaponiyaga mengzab ketyapmizmi? Shunga juda o'xshaydi. Har holda rivojlanishimiz sur'ati kunchiqar yurtnikidan ancha baland.

Ishonchim komil, shunday bo'ladi!

Chunki Vatanimizning bugunini va ertasini yaratishga vatanparvar, xalqparvar, ishbilarmon va adolatli inson bel bog'lagan!

Manba:

"Yangi O'zbekiston" gazetasi,
(2026-yil 12-may soni)



Mardi maydonlar



KUCH, IRODA VA SABR SINOVI

Harbiy xizmat – bu nafaqat kasb, balki matonat, iroda va cheksiz mas’uliyat ham demak. Amaliy tayyorgarlik, chiniqqan jism va bardoshli ruh jangchilardan talab etiladigan muhim omillardan. Shu bois Qurolli Kuchlarimizda harbiy xizmatchilarni har tomonlama yetuk etib tarbiyalashga qaratilgan mashg’ulotlar izchil va zamonaviy yondashuv asosida olib borilmoqda.

Bugungi kunda Mudofaa vazirligida harbiy xizmatchilarning jangovar shayligi, kasbiy mahorati hamda tezkor harakat qilish qobiliyatini yanada yuksaltirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, Mudofaa vazirligiga qarashli qo’mondonlik tasarrufidagi dala-o’quv maydonida navbatdagi amaliy mashg’ulotlar tashkil etildi. Kutilmagan vaziyatlar fonida o’tayotgan mashqlar azamatlarning nafaqat jismoniy, balki ruhiy tayyorgarligini ham

sinovdan o’tkazishiga xizmat qilmoqda. Mashg’ulotlar real jangga yaqin sharoitlarda olib borilmoqda. Hamjihatlikdagi qarorlar esa ularning jamoaviy jipsligidan darak beradi.

Mashg’ulotlar davomida shaxsiy tarkib shartli dushman bilan kurashish, himoya va hujum harakatlarini olib borish, jangovar safda harakatlanish, yashirinish va joy tanlash, zamonaviy qurol-yarog’ va texnik vositalardan samarali foydalanish bo’yicha ko’nikmalarini mustahkamlab bordi. Asosiy e’tibor esa kutilmagan vaziyatlarda tez va to’g’ri qaror qabul qilish hamda jamoaviy hamkorlikni kuchaytirishga qaratildi.

Ruhiy chidamkorlik va harakatdagi muvofiqlik

Podpolkovnik Farhod Egamovning ta’kidlashicha, harbiy xizmatchi qanchalik ko’p mashq qilsa, xizmat jarayonidagi vazifalarni shunchalik oson va professional ado etadi. Aytib



Sherzod EGAMBERDIYEV





Kichik serjant Ixtiyorjon MAMAJONOV



o'tish darkor, mashg'ulotlarning asosiy qismi yaqin masofadagi jang sharoitlarida harakatlanishga qaratildi. Maxsus o'quv binosi – "Kill house"da tashkil etilgan mashg'ulotda harbiy xizmatchilar real jang sharoitiga yaqin vaziyatda bino ichida jangovar quroldan foydalanib, tor va cheklangan hududlarda samarali o't ochish, nishonlarni aniqlash va zararsizlantirish, xonalarni tozalash, eshiklardan kirib borish va burchaklarni nazoratga olish kabi amaliy ko'nikmalarni mashq qildi.

– Murakkab manyovrlar bilan binoga kirib borish va chiqish, vaziyatni tez baholash va moslashish, qurolni samarali qo'llash – "Kill house"da qo'yiladigan asosiy talablardan, – deydi kichik serjant Qalandar Samandarov. – Bu kabi vazifalar harbiy xizmatchilarning taktik ustunligini oshirishi bilan birga ularda yuqori darajadagi jangovar tayyorgarlik, mas'uliyat va vazifani aniq bajarish malakasini ham mustahkamlaydi.

Ma'lumki o'q otish mashg'ulotlari harbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki jang maydonida har bir qaror, har bir bosilgan tugma va har bir o'qning o'z vazifasi bor. Navbatdagi

jarayonlarda harbiy xizmatchilar kichik guruhlarga bo'lingan holda o'zaro muvofiqlikda harakat qilishdi. Maydon bo'ylab turli xil masofalarda joylashgan nishonlarga qarata snayper, avtomat va pulemyot kabi qurollardan foydalangan holda aniq zarbalar berildi.

– Bu yerda har bir qadam aniqlikni, har bir harakat esa puxta hisob-kitobni talab etadi, – deydi kapitan Jasur To'layev. – Biz uchun eng muhimi – tezkorlik bilan birga aniqlikni yo'qotmaslik. Mashg'ulotlarda ham, amaliy harakatlarda ham aynan shu jihatga e'tibor qaratamiz. Jamoaviy uyg'unlik, o'zaro ishonch va doimiy tayyorgarlik – muvaffaqiyatimizning asosiy omili.

Mashg'ulotlar yakunida erishilgan natijalar chuqur tahlil qilinadi. Bu tahlillar keyingi mashg'ulotlarda ustuvor yo'nalishlarni belgilashga, harbiylarning jismoniy va ruhiy tayyorgarligini yanada mustahkamlashga yordam beradi. Erishilgan natijalar esa shuni ko'rsatadiki, izchil tayyorgarlik va amaliy mashg'ulotlar harbiy xizmat samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.


Sherzod EGAMBERDIYEV,
"Vatanparvar"



Qo'riq

YO'QOLIB BORAYOTGAN TILLAR – NAVBAT KIMNIKI?

Bu savollar tasodifiy emas. Sababi bugun dunyoda tillar birin-ketin sahnadan chiqib ketyapti. Mutaxassislar ma'lumotiga ko'ra, sayyoramizda 7 mingdan ortiq til mavjud. Biroq aholining qariyb 66 foizi ularning atigi 40 tasida so'zlashadi. Qolgan minglab tillar esa chekkada qolgan, zaif va himoyasiz yashamoqda.



Aytishlaricha, har ikki haftada bitta til yo'qoladi. Bu raqam shunchaki statistika emas. Bu har o'n besh kunda bir xalq o'z ovozi va xotirasini yo'qotadi degani. Ayni paytda **400 dan ortiq til yo'qolib ketish arafasida turibdi.** Dunyo tillarining qariyb **40 foizi** bu asr oxirigacha butunlay yo'qolib ketishi mumkin.

Til bir kunda o'lmaydi. U avvalo, qadrini yo'qotadi, keyin faqat tor doirada qo'llaniladi. Keyin uyatli tuyula boshlaydi va nihoyat keraksizga aylanadi. Eng og'ir yo'qolish shu tarzda sodir bo'ladi – jim, sezilmas, lekin qaytarib bo'lmas jarayon.

Katta tillar soyasida qolgan dunyo

Bugun tillar ham teng sharoitda yashamayapti. Dunyodagi eng yirik tillar – **xitoy, ingliz, hind, ispan va arab tillari** milliardlab insonlar tomonidan qo'llaniladi. Ular nafaqat so'zlashuv vositasi, balki iqtisod, fan va siyosat tiliga aylangan. Shuning uchun ham bu tillar boshqalarni sekin-asta siqib chiqarmoqda. Qiziq jihati shundaki, tilning **“kuchli”** yoki **“zaif”**ligi uning go'zalligiga emas, balki qo'llanish doirasiga bog'liq. Masalan, Yevropada **50 ga** yaqin til mavjud bo'lsa, Papua Yangi Gvineyaning o'zida **800 dan ortiq til bor.** Lekin ularning aksariyatini juda kamsonli odamlar biladi. Ayrim tillarda atigi **100–200 kishi** so'zlashadi.

Tabiiyki, bunday tillarning kelajagi juda noaniq. Eng tez yo'qolib borayotgan tillar **Avstraliya, Afrika va Amerika aboriginlari tillaridir.** Masalan, Avstraliyada o'tgan asr boshlarida **400 ga** yaqin til bo'lgan bo'lsa, bugun ularning atigi 20–25 tasi saqlanib qolgan.

Bu oddiy raqam emas. Bu jiddiy ogohlantirish. Tilni kim o'ldiryapti? Shu yerda eng og'ir savol tug'iladi. Tillar nega yo'qoladi?

Buning javobi oddiy emas. Bir qarashda globalashuv, migratsiya yoki iqtisodiy omillar asosiy sababdek ko'rinadi. Lekin chuqurroq qaralsa, muammo tashqaridan emas, ko'proq ichkaridan boshlanadi. Tilni hech kim tashqaridan kelib yo'q qilmaydi. Uni o'z egasi sekin-asta tark etadi.

Ayrim ota-onalar farzandining **“kelajagi uchun”** ona tilidan uzadi. Ayrimlar o'zbekcha gapirishni oddiy emas, balki past darajadagi muloqot deb qabul qiladi. Yana kimdir aralash, chala nutqni zamonaviylik deb o'ylaydi. Bu holatlar alohida qaralganda kichikdek tuyuladi. Lekin jamlanib kelganda ular tilning ichki poydevorini yemirib boradi.

Yana bir kuchli omil raqamli muhit bilan bog'liq. Bugun

axborotning asosiy qismi internet orqali tarqaladi. Qaysi til internetda faol bo'lsa, o'sha til yashaydi. Qaysi til raqamli maydonda yetarli darajada ishtirok etmasa, u sekin-asta hayotning boshqa sohalari ham cheklanib boradi. Demak, tilni saqlash endi faqat adabiyot yoki ta'lim bilan emas, balki raqamli makonda ham uning faolligini ta'minlash bilan bog'liq.

Yodda tuting! Til bir kunda o'lmaydi. U avvalo, qadrini yo'qotadi, keyin faqat tor doirada qo'llaniladi. Keyin uyatli tuyula boshlaydi va oxir-oqibat keraksizga aylanadi. Eng og'ir yo'qolish shu tarzda sodir bo'ladi.

Bu haqda ma'rifatparvar Alixonto'ra Sog'uniy bejiz ogohlantirmagan: **“Qaysi millat o'z ona tilini asray olmasa, u ko'p o'tmay, o'z huquqi va o'zligidan ajralib, tarixdan ham yo'qolishga mahkum bo'ladi”.**

O'zbek tili – imkoniyat va mas'uliyat

Endi savol tug'iladi. O'zbek tilining ahvoli qanday?

Bu tilda **50 millionga** yaqin inson so'zlashadi. Bu katta kuch. Til davlat maqomiga ega, ta'lim, davlat boshqaruvi va ommaviy axborot vositalarida keng qo'llaniladi. Bir qarashda xavf yo'qdek tuyuladi.

Ammo masala faqat sonda emas. Asosiy savol – bu til qanday qo'llanilyapti?

Bugun ijtimoiy tarmoqlar, reklama matnlari va ommaviy nutqda aralashlik, beqarorlik, bir xil me'yorning yo'qligi ko'zga tashlanadi. Bu hali halokat emas. Lekin jiddiy ogohlantirish. Boisi til, avvalo, o'z me'yorlarini yo'qota boshlaydi, keyin esa o'z yuzini yo'qotadi.

Islahotlar – imkoniyatdan natijaga

So'nggi yillarda mamlakatimizda o'zbek tilini rivojlantirish bo'yicha muhim qadamlar tashlanmoqda. Davlat rahbari tomonidan uning nufuzini oshirish va barcha sohalarda keng qo'llashga qaratilgan qator qaror va farmonlar qabul qilindi.

Jumladan, 2020-yilda qabul qilingan **“O'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi farmon bu borada muhim bosqich bo'ldi. Ushbu hujjat asosida o'zbek tilini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Konsepsiyada tilni davlat boshqaruvi, ta'lim, ilm-fan, axborot texnologiyalari va xalqaro munosabatlarda keng qo'llash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu bilan birga, yangi atamalarni tartibga solish, adabiy til me'yorlarini mustahkamlash va o'zbek tilini raqamli muhitda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Atamalar komissiyasining tashkil etilishi, normativ-huquqiy hujjatlarni

lingvistik ekspertizadan o'tkazish tizimining joriy etilishi ham shu yo'nalishdagi muhim qadamlardan hisoblanadi. Lekin bir haqiqatni tan olish kerak. Qaror va farmonlar o'z-o'zidan natija bermaydi. Agar bu islohotlar jamiyatning kundalik hayotiga kirmasa, ular qog'ozda qolib ketadi. Til siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun uni faqat davlat darajasida emas, balki har bir inson darajasida his qilish kerak.

Biroq o'zbek xalqining ruhi hech qachon so'nmagan. 1980-yillar oxirida yurtimizda Milliy uyg'onish to'lqini ko'tarildi. Ziyolilar, yoshlar, oddiy insonlar til taqdiri uchun kurashga chiqdi. Gazeta va jurnallar, yig'inlar orqali bir haqiqat takrorlandi. **Tilni asrash – millatni asrash, ekani tushuntirildi.**

Nihoyat, 1989-yil 21-oktabr sanasi tariximizda burilish nuqtasi bo'ldi. **“Davlat tili haqida”**gi qonun qabul qilinish, **o'zbek tiliga davlat tili maqomi** berildi. Bu qaror milliy o'zlikni tiklash va tilning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qilgan mustahkam poydevor bo'ldi. Mustaqillik yillarida o'zbek tili yangi bosqichga ko'tarildi. U davlat boshqaruvi, ta'lim, ilm-fan va ommaviy axborot vositalarida keng qo'llanila boshladi. Tilning qo'llanish doirasini kengaytirishga qaratilgan izchil ishlar amalga oshirildi. Bu jarayon keyingi yillarda yanada kuchaydi. Xususan, 2020-yil 10-aprelda imzolangan qonunga muvofiq, **21-oktabr O'zbek tili bayrami kuni sifatida belgilandi.** Bugun ushbu sana yurtimizda keng nishonlanmoqda va tilga bo'lgan hurmatni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Mas'uliyat – har kimning zimmasida

Tilni saqlash faqat tilshunoslar yoki mutaxassislarning ishi emas. Bu har bir insonning kundalik tanloviga bog'liq.

Qaysi tilda gapirishimiz, qanday so'z tanlashimiz, qanday yozishimiz – bularning barchasi til taqdiriga ta'sir qiladi.

Bugun biz bolalarga qaysi tilda murojaat qilyapmiz? Qaysi tilda o'ylashga o'rgatyapmiz? Qaysi tilda orzu qilishga yo'naltiryapmiz? Bu savollarga berilgan javob ertangi kunni belgilaydi. Aniqrog'i, qaysi til yashashini belgilaydi. **Bu haqda Yurtboshimiz “Bugun dunyoda kurash faqat hudud uchun emas, balki inson ongi va qalbi uchun kechmoqda” deb ta'kidlagan edi.**

Darhaqiqat, bunday sharoitda tilni asrash shunchaki madaniy masala emas. Bu ma'naviy xavfsizlik masalasidir. Agar biz bugun o'z tilimizga befarq bo'lsak, ertaga uni himoya qilishga kech bo'ladi. Chunki til yo'qolsa, uni qayta tiklab bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida emas, chaqiriq...

Aytishlaricha, adib Abdulla Qahhor bir vaqtlar kuyunib shunday savol bergan ekan:

“Nima uchun ko'cha qoidasini buzgan odamga hushtak chalinadi, ammo butun bir tilni buzayotganlarga hech kim hushtak chalmaydi?!”

Bu savol bugun ham o'z javobini kutib turibdi.

Aslida muammo hushtakda emas – befarqlikda.

Shunday ekan, tanlov oddiy, jim qolamizmi yoki mas'uliyatni o'z zimmamizga olamizmi?

Nigora HUSANOVA,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti
katta ilmiy xodimi,
Ma'rifat targ'ibotchilari jamiyati a'zosi

Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi



Virtual hayot

Axborot texnologiyalari shiddat bilan taraqqiy etayotgan bu davrda inson nafaqat Yer yuzida, balki ko'rinmas, ammo ta'siri beqiyos bo'lgan virtual olamda ham yashay boshladi. Bu yangi makon – ekranlar ortidagi dunyo, ayniqsa yoshlar ongi va qalbiga juda tez kirib bormoqda. Bir qarashda u imkoniyatlar eshigini keng ochayotgandek. Ammo shu eshik ortida inson qadriyatlarini, dunyoqarashi va hatto shaxsiyati bilan bog'liq jiddiy savollar ham paydo bo'lmoqda.

IKKI OLAM CHORRAHASIDA...



Falsafada aksiologiya deb ataluvchi tushuncha bor – u inson uchun nima qimmatli, nima muhim ekanini belgilaydi. Azaldan shakllangan haqiqiy hayot qadriyatlarini – oila mehri, mehnatning qadri, samimiyat, insonga hurmat, Vatanga sadoqat insonni inson qilib turgan asosdir. Bu qadriyatlar asrlar davomida sinalgan, hayotning o'zida pishgan haqiqatdir. Biroq virtual olamda bu mezonlar boshqacha tus ola boshlaydi.

Ekran ortida inson o'zini erkin his qiladi. U istagan qiyofaga kiradi, istagan obrazni yaratadi, hatto istagan "men"ni qurishi mumkin. Bu esa ba'zan ikki xil shaxsiyat – haqiqiy va virtual "men" o'rtasidagi nozik chegarani yo'qqa chiqaradi. Inson o'zini qanday ko'rsatsa, shunday qabul qilinishini xohlaydi. Ammo bu qabul ko'p hollarda yuzaki bo'ladi. Layklar, obunachilar soni, ommaviy e'tirof – go'yoki qadr mezoniga aylanadi. Natijada yoshlar ongida haqiqiy qadriyatlar emas, balki sun'iy ustuvorliklar shakllanishi xavfi yuzaga keladi.

Haqiqiy hayotda inson qadri uning amallari, axloqi, mehnati bilan o'lchanadi. Virtual muhitda esa ko'pincha tashqi

ko'rinish, ko'z-ko'z qilish va diqqatni jalb etish muhimdek tuyuladi. Shu bois ba'zi yoshlar o'zlarini emas, balki boshqalarga yoqadigan qiyofani namoyon etishga urinadi. Bu esa ichki ziddiyatlarni, o'zligini anglashdagi murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Yana bir jihat bor: virtual olam vaqt va masofa chegaralarini yo'qqa chiqaradi. Inson istalgan nuqta bilan bir lahzada bog'lana oladi. Lekin shu qulaylik ortida insonning eng qimmatli boyligi – tirik muloqot qadri pasayib bormoqda. Oila davrasidagi suhbatlar o'mini telefon yoritgan yuzlar egallamoqda. Rishtalar ekran ortida shakllanmoqda. Samimiylik, hissiy yaqinlik, bir-birini tinglash kabi insoniy fazilatlar asta-sekin so'nib borayotgandek.

Virtual muhitdagi yana bir muammo – mas'uliyat hissining susayishi. Anonimlik insonga erkinlik bergandek tuyuladi, ammo bu erkinlik ba'zan me'yorsizlikka olib keladi. Haqiqiy hayotda qabul qilinmaydigan ayrim xatti-harakatlar virtual makonda oddiy holga aylanib qolishi mumkin. Bu esa axloqiy me'yorlarning parchalanishiga sabab bo'ladi.

Shu bilan birga, virtual reallikni faqat salbiy ranglarda tasvirlash ham adolatdan emas. Bu olam – bilim manbai, imkoniyatlar maydoni. U orqali yoshlar dunyo universitetlaridan ta'lim olyapti, yangi kasblarni egallayapti, o'z iste'dodini namoyon etyapti. Birgina telefon yoki kompyuter orqali inson butun dunyo bilan muloqotga kirishmoqda. Bu – zamon bergan ulkan imkoniyat.

Masala virtual olamning o'zida emas. Masala – insonning undan qanday foydalanishida. Agar yoshlar virtual va haqiqiy hayot o'rtasidagi chegarani aniq anglasa, ekran ortidagi dunyoga qul bo'lib qolmasa, bu ikki olam o'rtasida muvozanatni saqlay olsa – hech qanday xavf yo'q. Aksincha, bu imkoniyatlar ularni yanada kuchli, bilimli va keng dunyoqarashli qilishi mumkin.

Biroq buning uchun yoshlarda tanqidiy fikrlash, ma'naviy barqarorlik va ongli tanlov qilish qobiliyati shakllangan bo'lishi shart. Chunki axborot oqimi juda kuchli. Uning ichida haqiqat ham bor, adashish ham. Qaysini tanlash – insonning o'ziga bog'liq.

Eng achinarlisi, ba'zi yoshlar o'z hayotining eng sarmazmun yillarini virtual olamda o'tkazib qo'yarmoqda. Ular uchun haqiqiy yutuqlardan ko'ra, o'yindagi g'alaba yoki ijtimoiy tarmoqdagi mashhurlik muhimroq bo'lib qolmoqda. Bu esa vaqtning qadrini unuttirishi mumkin.

Aslida esa inson hayoti – qaytarilmas ne'mat. Uni ekran ortida emas, haqiqiy hayotda mazmunli o'tkazish kerak. Chunki haqiqiy baxt – tirik muloqotda, samimiy munosabatlarda, halol mehnat va ezgu amallarda mujassam.

Xulosa qilib aytganda, inson ikki olam – virtual va haqiqiy hayot chorrahasida turibdi. Qaysi yo'lni tanlash, qaysi qadriyatlarini ustun qo'yish – har bir insonning ongli qaroriga bog'liq. Agar biz qadriyatlarimizga sodiq qolsak, virtual olamni vosita sifatida ko'ra olsak, u bizga xizmat qiladi. Aks holda esa inson o'zi yaratgan olamga asir bo'lib qolishi hech gap emas.

Podpolkovnik Vaisboy MADRAHIMOV, Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti sikl boshlig'i

Fakt



“SUN'IY”NI “TABIY”DAN AJRATISH ZARURATI yoxud sun'iy idrok yozgan materialni ilg'ay olasizmi?

Zamonaviy mediamakonni sun'iy intellekt texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Ta'kidlash joizki, bir necha soniya ichida katta hajmdagi materialni yarata olish imkoni jurnalistika taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Shu bilan bir qatorda muammolarni ham yuzaga keltirdi.

So'nggi vaqtlarda generatsiya qilingan matnlar mediada urchib ketdi. Alalxusus, ijtimoiy tarmoqlarda, bloglarda, ba'zan rasmiy platformalarda ham sun'iy intellekt yordamida bitilgan xabarlarga ko'zimiz tushyapti.

Mediasavodxonlikdan bexabar kishi ularni jurnalistlar yozgan deb o'ylayapti. Vaholanki, sun'iy idrok qalamiga mansub "ijod" namunasini aniqlovchi bir necha usullar mavjud. Quyida ularni birgalikda ko'rib chiqamiz.

Avvalo, sun'iy intellekt haddan tashqari "silliq" va bir tekisda o'qiladigan matnlarni yaratadi. Gaplar grammatik jihatdan deyarli xatoliklarsiz yoziladi, fikrlar izchil ravishda bayon etiladi. Abzaslar hajmi, so'zlar miqdori ham uyg'unlik hosil qiladi(!) Bir so'z bilan aytganda, material "jonli" chiqmaydi.

Sun'iy intellekt aksar hollarda mavzuni umumiy ta'riflar asnosida ochib beradi. Jumladan,

"texnologiyalar rivojlanmoqda", "jamiyatga ta'siri katta" kabi jumalarni ishlatadi. Aniq misollar, shaxsiy kuzatuv yoki muallif pozitsiyasini lupa bilan qidirib ham topolmaysiz.

Ko'plab generativ materiallarda o'quvchining his-tuyg'ulari bilan hisoblashilmaydi. Axborot yetkaziladi, lekin auditoriyani ushlab turuvchi, oxirigacha o'qishga chorlovchi unsurlar "mana men", deb bo'y cho'zib turmaydi. Publitsist esa so'z orqali o'quvchiga

ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kayfiyat ulashadi. Munosabatni shakllantiradi.

Aqlli ko'makchi ko'p hollarda mavjud bo'lmagan statistik ma'lumot, noto'g'ri sana yoki uydirma manbalarni taqdim etadi. Bu holat "gallyutsinatsiya" deb ataladi. Shu bois ham SI yordamida tayyorlangan har qanday kontentni tekshirish, fakt-chekingdan o'tkazish darkor.

Bugungi kunda SI orqali yozilgan matnlarni aniqlovchi

turli dasturlar ishga tushirilgan. Ulardan biri – o'zbek tilida ishlovchi "Detecting-ai.com" platformasi. Shuningdek, "GPT Zero" yoki "Zero GPT" singari vositalar ham matnning generativlik ehtimolini aniqlashga yordam beradi. Matnning qaysi qismi sun'iy intellekt, qaysi qismi inson tomonidan yozilganini tahlil qiladi. Biroq 100 foiz to'liq va to'g'ri natija chiqaradi deb, aytish amrimahol.

Har qanday matnga tanqidiy nuqtayi nazar bilan qarashni davrning o'zi taqozo etmoqda. O'quvchi manbani tekshirishi, faktlarni solishtirishi va yozilish uslubiga diqqat qilishi darkor. Chunki sun'iy intellekt imkoniyatlari kengayishi barobarida axborotning ishonchlilik masalasi ham kun tartibiga chiqmoqda.

Zero essenavis Sevara Alijonova aytmoqchi, "sun'iy" va "tabiiy" matnlarni farqlashda "Sifatliroq instrument – odam va uning tajribasi" hisoblanadi.

Ulug'bek SHAROBIDDINOV, O'zJOKU talabasi



Vatan ichidagi "Vatan"



YANGI UYLAR, IMKONIYATLAR, UMIDLAR...



Bugun yurtimiz osoyishtaligini ko'z qorachig'idek asrab kelayotgan yurt himoyachilariga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangani hech kimga sir emas. Zero harbiy xizmatchi xotirjam bo'lsa, oilasi farovon yashasa, yurt mudofaasi yanada mustahkam bo'ladi.

Andijon viloyatida harbiy xizmatchilar uchun barpo etilgan yangi turarjoy majmuasi hamda yosh askarlarni kasb-hunarga o'qitishga mo'ljallangan zamonaviy markazning foydalanishga topshirilishi bu yo'nalishdagi ishlar izchil davom etayotganini ko'rsatadi.

Tantana keng jamoatchilik ishtirokida, ko'tarinki ruhda o'tdi. Unda Sharqiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi, viloyat hokimligi, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, faxriylar hamda yoshlar ishtirok etdi.

Tantana davomida yangi uy sohiblariga xonadonlarning ramziy kalitlari topshirildi. Bu lahzalarda yurt himoyachilari va ularning oila a'zolari qalbidagi quvonch, minnatdorlik va iftixor tuyg'ulari yuz-ko'zlarida yaqqol aks etdi. Ular ushbu kunni hayotlaridagi unutilmas sana sifatida baholab, yaratilgan sharoitlar harbiylar uchun katta rag'bat va ishonch manbai ekanini alohida ta'kidlashdi.

Yangi Bobur shahrida qad rostlagan, 50 xonadonga mo'ljallangan sakkiz qavatli inshoot nafaqat tashqi ko'rinishi, balki ichki qulayliklari bilan ham ajralib turadi. Ikki va uch xonali shinam xonadonlar barcha zamonaviy talablarga javob beradi. Eng muhimi, bu yerda harbiy xizmatchilarning oilalari uchun tinch va farovon hayot kechirishga zarur barcha sharoitlar yaratilgan.



Tadbir doirasida yana bir muhim inshoot – muddatli harbiy xizmatchilarni kasb-hunarga o'qitish markazi ham foydalanishga topshirildi. Zamonaviy jihozlangan ushbu maskanda askarlar nafaqat harbiy tayyorgarlik, balki hayotda asqatadigan amaliy kasblarni ham o'rganish imkoniga ega bo'ladi. Kompyuter savodxonligi, elektr jihozlariga xizmat ko'rsatish, payvandlash, avtomobil ta'miri kabi yo'nalishlarda tashkil etiladigan mashg'ulotlar ularning kelajakda mustaqil hayotga ishonch bilan qadam qo'yishida muhim o'rin tutadi.

Bu kabi markazlar, ayniqsa muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgan yoshlarning keyingi hayoti uchun beqiyos ahamiyatga ega. Chunki ular bu yerda nafaqat bilim, balki o'z kelajagiga bo'lgan ishonchni ham qo'lga kiritadi. Bu esa jamiyatda bandlikni ta'minlash, yoshlarning o'z o'rnini topishiga xizmat qiladi.

Tadbir yakunida ishtirokchilar yangi obyektlarda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Zamonaviy o'quv xonalari, amaliy mashg'ulot maydonlari va qulay infratuzilma mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.


Gulihumo MAJIDOVA,
Sharqiy harbiy okrug
matbuot xizmati bosh mutaxassisi



Shaffoflik sari

RAQAMLASHTIRISH — korrupsiyaga qarshi kuchli qalqon

Bugun dunyo jadallik bilan raqamli taraqqiyot bosqichiga o'tayotgan bir paytda barcha sohalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hayotiy zaruratga aylanmoqda. Ayniqsa, inson taqdiriga bevosita daxldor bo'lgan kadrlar bilan ishlash tizimida ochiqlik, adolat va shaffoflikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.



bilan ishlash jarayonlarini to'liq raqamlashtirish, ya'ni 100 foizga yetkazish ustuvor vazifa etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi tegishli qaroriga asosan, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi huzuridagi Virtual akademiyada boshqaruv tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar xizmatchilarini korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo'yicha o'quv kurslarida o'qitish tashkil etildi. Mazkur kurslarda 2024–2025-yillar davomida mingdan ortiq vazirlik harbiy xizmatchilari va Qurolli Kuchlar xizmatchilari (*xodimlari*) malakasi oshirildi. Joriy yilda ham korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish kurslarida qo'shinlar ehtiyojidan kelib chiqib, harbiy xizmatchilarni o'qitish rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, kadr organi xodimlari bilan o'tkaziladigan chorak va yil yakunlari yig'ilishlarida asosiy masalalardan biri – bu korrupsiyaviy holatlarga qarshi kurashish, kadr jarayoniga tegishli bo'lmagan shaxslar aralashuvi, sarsongarchiliklarni bartaraf qilish choralari va takliflar muhokama etib kelinmoqda. Mazkur tadbirlarda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, prokuratura, sud organlaridan yetakchi mutaxassislar jalb etilgan holda shaxsiy tarkib bilan tushuntirish-profilaktik tadbirlar muntazam ravishda o'tkazilyapti. Ushbu chora-tadbirlarda harbiy xizmatchilarga barcha sohalarda korrupsiyaga qarshi nazorat tizimining kuchaytirilgani, noqonuniy xatti-harakatlarga nisbatan jazo muqarrarligi hamda qonunchilik talablari misollar bilan batafsil yetkazilmoqda.

Albatta, amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida bir maqsad mujassam – adolatli, shaffof va samarali tizimni shakllantirish. Chunki inson omili kamaygan, raqamli yechimlar ustuvor bo'lgan tizimda korrupsiyaga o'rin qolmaydi. Shunday ekan, kelgusi yillarda ham kadrlar bilan ishlash tizimida korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar profilaktikasi, harbiy xizmatga qabul qilish, lavozimga tayinlash, rag'batlantirish jarayoniga tegishli bo'lmagan inson omili va byurokratiyaga barham berish, shaffoflikni ta'minlash, tizimni to'liq raqamlashtirish yo'nalishlarida manzilli ishlar olib boriladi.

Zero shaffof tizim kuchli davlat va ishonchli armiyaning eng mustahkam poydevoridir.

Azizjon TOIROV,
Mudofaa vazirligi Kadrlar bosh boshqarmasi bosh mutaxassisi

Shu ma'noda Mudofaa vazirligi tizimida inson resurslari bilan ishlash jarayonlarini raqamlashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgani alohida ahamiyat kasb etadi.

Axborot asrida tizimni zamonaviy texnologiyalar va platformalarni joriy qilish orqali raqamlashtirish ustuvor vazifa va korrupsiyaga qarshi eng samarali chora sifatida ko'rilib, sohaga ilg'or xorijiy tajribalar joriy qilinmoqda. Bu haqda Prezidentimiz ma'ruzalarining birida quyidagicha ta'kidlagan: "Raqamlashtirishdan bosh tortayotgan rahbar korrupsiyani yo'q qilishga intilmagan rahbardir".

Xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2025-yilda amalga oshirish davlat dasturi doirasida istiqbolda tizimni raqamlashtirish va inson omili aralashuvini minimallashtirish maqsadida elektron platforma yaratildi va ishga tushirildi. O'tgan 2025-yilda Mudofaa vazirligi kadr organlari xodimlarini "Uzinocom" mas'uliyati cheklangan jamiyat mutaxassislari ko'magida mazkur tizimdan foydalanish bo'yicha o'qitildi. Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirish istagini bildirgan nomzodlarni yagona interaktiv davlat xizmatlari portali "My.gov.

uz" orqali elektron ro'yxatdan o'tish, onlayn ariza berish tizimi joriy qilindi va tizim 2025-yilning aprel oyidan boshlab ishga tushirildi. Bu yangilik orqali nomzodlar ortiqcha ovoragarchiliklarsiz, shaffof tarzda o'z hujjatlarini taqdim etish imkoniga ega bo'lmoqda. Shuningdek, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga, harbiy ta'lim muassasalari va harbiy akademik litseylarga nomzodlarni saralash jarayonlari va test-sinov topshirish tadbirlari onlayn ravishda, inson omilining aralashuvisiz, shaffoflik asosida olib borilmoqda.

Kadrlar va harbiy-kasbiy saralash tizimida raqamlashtirish, elektron platformalarni yuritish faollashmoqda, korrupsiyaviy holatlarga qarshi kurashish jadallashib, sohada rahbarlar va bo'linmalar faoliyati samaradorligini baholash KPI tizimi joriy qilindi. Joriy yildan boshlab harbiy xizmatchilar hamda nomzodlarga qulaylik yaratish maqsadida "Rekruting", "Samaradorlik – KPI" modullari hamda "Ishchi va xizmatchilar mehnat faoliyati", platformalarini yaratish ishlari faollik bilan amalga oshirilmoqda. Bu borada qabul qilingan muhim hujjatlar ham tizimli islohotlarning huquqiy asosini mustahkamlamoqda. Jumladan, davlat dasturlari doirasida inson resurslari

Ogohlik

GIYOHVANDLIK — JAMIYATNI YEMIRAYOTGAN ILLAT

Insoniyat taraqqiyoti davomida ko'plab muammolarga duch kelgan. Ammo shunday illatlar borki, ular nafaqat bir insonni, balki butun jamiyatni ichdan yemiradi. Giyohvand moddalar ana shunday xavflardan biri bo'lib, u sekin, lekin shafqatsiz tarzda inson hayotini izdan chiqaradi. Eng achinarlisi, bu illat ko'proq yoshlar hayotiga tahdid solmoqda.

Giyohvand moddalar dastlab insonni go'yoki muammolardan qochishga yordam beradigandek tuyuladi. Ammo aslida u insonni asta-sekin o'ziga qaram qilib qo'yadi. Bir marta sinab ko'rish "qiziqish" sifatida boshlansada, keyinchalik bu odat kuchli ehtiyojga, so'ng esa qaramlikka aylanadi. Natijada inson o'z sog'lig'ini, oilasini, orzulari va kelajagini yo'qota boshlaydi.

Tibbiyot nuqtayi nazaridan qaraganda, giyohvand moddalar miya faoliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Ular asab tizimini izdan chiqaradi, insonning fikrlash qobiliyatini susaytiradi va ruhiy kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Jismoniy jihatdan esa yurak, jigar, o'pka kabi muhim organlar faoliyati buziladi. Ko'p hollarda bu jarayon o'lim bilan yakunlanadi. Bu muammo faqat bir shaxs bilan cheklanib qolmaydi. Giyohvand moddalarga qaram bo'lgan inson o'z atrofidagilarga ham zarar yetkazadi. Oilalarda nizolar kuchayadi, jinoyatchilik darajasi ortadi, jamiyatda beqarorlik yuzaga keladi. Ayniqsa, yoshlarning bu yo'lga kirib ketishi millat kelajagi uchun jiddiy xavfdir.

Giyohvandlikka qarshi kurashish – bu faqat jazolash bilan hal etiladigan masala emas. Bunda eng avvalo profilaktika choralari juda muhim. Yoshlarni to'g'ri

yo'lga yo'naltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sport va ilm-fanga jalb qilish zarur. Oila esa bu borada eng muhim tayanchdir. Mehr, e'tibor va nazorat yetishmagan joyda xavf kuchayadi.

Ta'lim muassasalari ham bu kurashning muhim bo'g'ini hisoblanadi. Maktab va oliy o'quv yurtlarida narkotiklarning zararli oqibatlar haqida ochiq va ta'sirli targ'ibot ishlari olib borilishi kerak. O'quvchilar faqat nazariy emas, balki hayotiy misollar orqali bu illatning asl qiyofasini anglab yetishlari lozim.

Shuningdek, davlat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan olib borilayotgan qat'iy choralar

ham muhim ahamiyatga ega. Giyohvand moddalarni ishlab chiqarish, saqlash va tarqatishga qarshi keskin kurash jamiyatni bu illatdan himoya qilishga xizmat qiladi. O'zbekistonda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurash bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu yo'nalishda ichki ishlar organlarini narkotesterlar bilan ta'minlash, jinoyatlarni aniqlashda dronlardan foydalanish, mutaxassislari tayyorlash hajmini 5 baravarga oshirish bo'yicha ham maqsadli vazifalar belgilangan.

Unutmasligimiz kerakki, giyohvand moddalar insonning eng katta dushmanlaridan biridir. Unga qarshi kurashish har birimizning burchimiz. Agar biz yoshlarimizni bu illatdan asray olsak, demak, kelajagimizni saqlab qolgan bo'lamiz.

Yulduzxon BAXRONOVA,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi talabasi

Mafkuraviy maydon

GIBRID URUHLAR ASRIDA G'ALABA KIMNIKI?



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Bugungi kunda jahonning siyosiy xaritasi shunchaki geografik chegaralarning o'zgarishi bilan emas, balki inson ongi, tafakkuri va qalbi uchun kechayotgan keskin kurashlar bilan ham tavsiflanmoqda. Zamonaviy to'qnashuvlar endilikda faqat uzoq front chiziqlarida, harbiy poligonlar yoki strategik obyektlar atrofida sodir bo'layotgani yo'q. XXI asrning eng xavfli jang maydoni har bir insonning kundalik hayotiga kirib kelgan smartfon, planshet va kompyuter ekranlariga ko'chib ulgurdi.

“SOKIN” HALOKAT STRATEGIYASI

Endi qurol sifatida tank, raketa yoki samolyot emas, balki yolg'on axborot, manipulyativ kontent, kiberhujumlar va psixologik bosim vositalari keng qo'llanilmoqda. Bugungi globalashuv davrida axborot soniyalar ichida bir qit'adan boshqasiga yetib boradi. Shu sababli birgina yolg'on xabar butun jamiyatda vahima, ishonchsizlik yoki ijtimoiy ziddiyatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, pandemiya davrida ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan “falon mahsulot virusni davolaydi”, “vaksinlar inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi” kabi asossiz xabarlar millionlab insonlarning noto'g'ri qaror qabul qilishiga sabab bo'ldi. Ayrim davlatlarda esa bunday dezinformatsiyalar tufayli sog'liqni saqlash tizimiga bo'lgan ishonch pasaydi.

Shuningdek, ayrim davlatlarda siyosiy beqarorlikni yuzaga keltirish uchun ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanilgan holatlar ham kuzatilgan. Soxta akkauntlar orqali ommaviy norozilik kayfiyatini kuchaytirish, davlat institutlariga nisbatan ishonchsizlikni shakllantirish va jamiyatni ichidan bo'lishga qaratilgan axborot kampaniyalari tashkil etilgan. Misol tariqasida, turli mamlakatlardagi saylov jarayonlariga tashqi axborot aralashuvlari haqidagi xalqaro muhokamalar bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda. Bu esa axborot quroli qanchalik kuchli ekanini yana bir bor isbotlaydi.

Kiberhujumlar esa bu kurashning yanada xavfli qirrasidir. Yirik tashkilotlar yoki davlat tizimlariga qilingan hujumlar orqali millionlab insonlarning shaxsiy ma'lumotlari o'g'irlanmoqda. Bank kartalari, elektron platformalar, davlat xizmatlari tizimlariga qilingan tahdidlar bugungi kunning real xavfidir. Oddiy inson ham bu jarayondan chetda emas. “Bank xodimiman” degan qo'ng'iroqlar, shubhali havolalar, messenger orqali keladigan firibgarliklar – gibridd urushning kundalik ko'rinishi.

Ayniqsa, yoshlar bu axborot xurujlariga eng tez ta'sirlanuvchi qatlam hisoblanadi. Chunki ular internet va ijtimoiy tarmoqlarning eng faol foydalanuvchilari. Ba'zan birgina bloger yoki anonim sahifaning noto'g'ri ma'lumoti katta auditoriyaga tarqalib ketadi. “Tez boyish”, “oson muvaffaqiyat”, radikal g'oyalarni yashirin targ'ib qiluvchi kontentlar yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.

Shu bois bugun Vatan himoyasi tushunchasi ham yangi ma'no kasb etmoqda. Bu endi faqat sarhadlarni qo'riqlash emas. Bu millatning ma'naviy butunligini, jamiyatning axborot makonini, inson ongini turli zararli ta'sirlardan asrash, axborot sarhadlarini har qanday begona g'oyalar, yolg'on targ'ibot va zararli ta'sirlardan himoya qilish demakdir. Bu haqda davlatimiz rahbari ham ta'kidlagan. Shunday ekan, bugungi davr har bir fuqarodan, ayniqsa yosh avloddan yuqori darajadagi media savodxonlikni, tanqidiy fikrlashni va axborot iste'moli madaniyatini talab qilmoqda. Har qanday xabarni darhol qabul qilish emas, balki uning manbasini tekshirish, faktlarni solishtirish va hissiyotlarga berilmaslik bugungi davrning muhim ko'nikmalaridan biridir. Axborot xavfsizligini ta'minlash faqat davlat organlarining vazifasi emas. Bu umumiy mas'uliyatdir. Zero oiladagi tarbiya, ta'lim muassasalaridagi bilim, ommaviy axborot vositalaridagi mas'uliyat va har bir insonning shaxsiy ongli pozitsiyasi birlashgandagina samara beradi. Chunki gibridd urush sharoitida eng mustahkam qal'a – bu axborot jihatdan hushyor va ma'naviy barqaror jamiyatdir.

QUROLSIZ BOSHLANGAN INQIROZLAR

Bugungi gibridd urushlar davrida an'anaviy qurollarning gumburlashi tobora ikkinchi planga tushib, uning o'rnini axborotning “pinhona zarbalari” egallamoqda. Endilikda jang maydoni

faqat front chizig'i emas, inson tafakkuri, dunyoqarashi va ruhiyati ham kurash markaziga aylangan. Bu urushda “o'q” vazifasini puxta rejalashtirilgan yolg'on xabarlar, manipulyativ materiallar va feyk axborotlar bajarmoqda. “Snayper” rolini esa jamiyatning nozik nuqtalarini topib, ularni nishonga oladigan anonim telegram kanallar, bot tarmoqlari va g'arazli axborot platformalari ijro etmoqda. Ularning strategiyasi oddiy ko'rinsa-da, oqibati juda xavfli: xalqning o'z davlatiga, milliy armiyasiga, huquq-tartibot tizimiga hamda ertangi kunga bo'lgan ishonchini asta-sekin yemirish. Ishonch zaiflashgan joyda esa beqarorlik, ijtimoiy tushkunlik va nizolar uchun qulay muhit paydo bo'ladi.

Masalan, biz yuqorida ham ta'kidladik, dunyoning ayrim davlatlarida pandemiya davrida ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan yolg'on xabarlar sabab odamlar rasmiy sog'liqni saqlash tizimiga ishonmay qo'ygan holatlar kuzatildi. “Vaksina zararli”, “kasallik sun'iy yaratilgan”, “davlat haqiqatni yashirmoqda” kabi asossiz xabarlar sabab millionlab insonlarning nafaqat sog'liqni saqlash tizimi, balki davlat institutlariga bo'lgan ishonchi ham yo'qoldi. Yana bir misol sifatida ayrim davlatlarda saylovlar oldidan ijtimoiy tarmoqlar orqali ataylab tarqatilgan provokatsion materiallarni keltirish mumkin. Soxta videolar, montaj qilingan chiqishlar va anonim sahifalar orqali jamiyatda keskinlik kuchaytirilgan. Keyinchalik bu materiallarning ko'pchiligi yolg'on ekanini aniqlangan bo'lsa-da, lekin soxta materiallar qisqa vaqt ichida katta ijtimoiy rezonans keltirib chiqarib ulgurgan edi.

Tarixga nazar tashlasak, yaqin o'tmishda ayrim qo'shni mintaqalarda yuz bergan “rangli inqiloblar”, ichki nizolar va siyosiy inqirozlar ko'pincha aynan axborot xurujlari bilan boshlanganini ko'rish mumkin. Avval ijtimoiy tarmoqlarda mish-mishlar tarqatilgan, davlat organlari obro'sizlantirilgan, keyinchalik esa bu

jarayon ommaviy tartibsizliklarga olib kelgan. Unda dastlab qurol ishlatilmagan bo'lishi mumkin, biroq yolg'on axborot bilan zaharlangan ong jamiyatni ichdan yemira boshlagan. Ayrim hollarda odamlar o'z mulkiga, o'z shahriga va hatto o'z davlat tizimiga qarshi harakat qilgan holatlar ham tarixda kuzatilgan. Bu esa axborot qurolining naqadar kuchli ekanini ko'rsatadi.

MA'NAVYI ISTEHKOMNING BIRINCHI CHIZIG'I

Davlatimiz tomonidan axborot ochiqchiligi ta'minlash, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va kiberxavfsizlikni kuchaytirish bo'yicha keng ko'lamlislohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq eng zamonaviy texnologiyalar ham inson omili zaif bo'lsa, kutilgan natijani bermaydi. Shu nuqtayi nazardan, bu jarayonda rahbar omili alohida ahamiyat kasb etadi. Rahbar nafaqat boshqaruvchi, balki jamoa uchun haqiqat mezoni, ma'naviy tayanch va axborot filtri bo'lishi kerak. Masalan, agar biror tashkilot yoki harbiy qism ichida “maoshlar kamayadi”, “tizimda katta qisqartirish bo'ladi” kabi tasdiqlanmagan mish-mishlar tarqalib, rahbariyat bunga e'tibor bermasa, bu jamoada ishonchsizlik va ruhiy tushkunlikni kuchaytirishi mumkin. Vaholanki, o'z vaqtida berilgan aniq tushuntirish bunday xavfning oldini oladi. Bugungi rahbar axborot maydonida sodir bo'layotgan har bir jarayon ortidagi geosiyosiy manfaatlarni tahlil qila oladigan, jamoasini manipulyatsiyalardan himoya qila oladigan darajada savodli va hushyor bo'lishi zarur.

BIZ NIMALARGA TAYYOR BO'LISHIMIZ KERAK?

Bugungi kunda biz faqat texnik himoya vositalarini kuchaytirishga emas, balki inson ongida mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirishga tayyor bo'lishimiz kerak. Chunki zamonaviy urushlarda hujum avvalo inson tafakkuriga nisbatan bo'lmoqda. Shunday ekan, bizga bugun shunchaki buyruqni bajaruvchi ijrochilar emas, balki Vatan taqdirini o'z taqdiri deb biladigan, mustaqil fikrlaydigan, media savodxonligi yuqori bo'lgan, axborot xurujlariga ilm va tafakkur bilan javob bera oladigan yoshlar kerak. Masalan, mahallalarda tashkil etilayotgan sport musobaqalari, kitobxonlik tanlovlari, harbiy-vatanparvarlik uchrashuvlari, yoshlar forumlari va kasbga yo'naltirish loyihalari shunchaki rasmiy hisobot uchun emas, balki yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni yot g'oyalardan himoya qilish vositasiga aylanishi zarur. Chunki bo'sh qolgan ongni kimdir albatta to'ldiradi. Agar u ilm va ma'rifat bilan to'lmasa, turli zararli g'oyalar bilan to'lishi mumkin.

Tinchlik – bu shunchaki urush yo'qligi emas. Tinchlik doimiy hushyorlik, tayyorgarlik va birlik demakdir. Bugungi axborot maydonidagi g'alaba esa qurol kuchi bilan emas, balki bilim, tafakkur va ma'naviy barqarorlik bilan qo'lga kiritiladi. Eng muhimi, har birimiz shuni anglashimiz kerak: Vatan himoyasi chegaradan emas, balki insonning o'zi – uning vijdoni, ongi va hushyorligidan boshlanadi.

MahliyoXon NOMURATOVA,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa
universiteti dotsenti

15-may – Xalqaro oila kuni

Darhaqiqat, oila – tengsiz dargoh. Jamiyat negizini tashkil etuvchi bu mo'jaz mamlakatda yosh avlod unadi, bo'lajak olim-u allomalar, dunyoga taniqli insonlar tarbiya topadi, qad rostlaydi.



Oila – tengi yo'q ULUG' DARGOH

Bir so'z ila muxtasar etganda, millat istiqboli shakllanadi. Shoirona aytganda:

*Hur elning istiqbol qasri u,
Ta'lim dargohlarin asli u.
Millatning o'zligin asrovchi
Qadriyat, an'ana bag'ri u.*

Davlatimiz tomonidan oilalarga, uning bag'rida voyaga yetayotgan o'g'il-qizlarga katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Oilalardagi chiroyli muhit, oila a'zolarining o'zaro ahilinoqligi, bilim olishga, kasbhunarli bo'lishga intilishi, milliy qadriyatlarimizga e'tiborli va ma'naviy yetukligi mamlakat rivojida katta ahamiyat kasb etadi.

Mudofaa vazirligi tasarrufidagi harbiy xizmatchilarning oilalari ham har tomonlama ijtimoiy himoya va g'amxo'rlikka ega ekani e'tirofga sazovor. Mudofaa vazirligi qo'shinlarida "Yangi O'zbekistonning ibratli oilasiman!" shiori ostida "Ibratli harbiy oila" ko'rik-tanlovining an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgani fikrimiz dalilidir.



Harbiy xizmatchilarning oilalarida sog'lom tumush tarzini targ'ib qilish, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy hordiq chiqarishga asoslangan ko'rik-tanlovni o'tkazishdan maqsad harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ongida tariximiz, milliy an'ana va urf-odatlarimizga chuqur hurmat va ehtiromni yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, bellashuvlar orqali ular orasida sog'lom raqobat ruhini

qaror toptirish hamda ular bilan olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samarasini oshirishdan iborat.

Samarqand shahridagi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Serjantlar tayyorlash oliy maktabida "Ibratli harbiy oila" ko'rik-tanlovining yakuniy bosqichi bo'lib o'tdi. Olti shart: "Oilam – mening baxtim", "Darts", "Osh chempionati", "She'riyat gulshani", "Oilam

– mening faxrim", "San'atim – saodatim" bellashuvida vazirlik tizimidagi to'qqizta harbiy oila o'zaro kuch sinashdi. Ularning bellashuvlardagi har bir ishtirokini nufuzli hay'at a'zolari shaffof tarzda baholab bordi. Shuningdek, Mudofaa vazirligi xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisi Zulfiya Mansurova ularning shartlar bo'yicha tayyorgarligi va chiqishiga alohida e'tibor qaratdi.

Ikki kun davom etgan ko'rik-tanlov ko'tarinki ruhda o'tdi va oilalarning o'ziga xos qirralarini kashf etdi. Ta'kidlash joizki, tanlovda ishtirok etgan har bir oila bellashuvlardagi iste'dod va mahorati, esda qolarli chiqishlari bilan tomoshabinlar ko'nglidan joy egalladi. Bu oilalarni bir-biridan yuqori baholash mushkul. Shunday bo'lsa-da, hay'at a'zolari tomonidan belgilangan ballar evaziga oilalarga o'rinlar va nominatsiyalar belgilandi.

Unga ko'ra, nominatsiyalarga quyidagi oilalar munosib topildi:

"Muxlislar mehrini qozongan harbiy oila" – kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi Husniddin Kucharovlar oilasi;





“Aktyorlik mahorati rivojlangan harbiy oila” – kapitan Murodbek Xudoyberganovlar oilasi;

“Eng ahil harbiy oila” – kichik serjant Botir Yusupovlar oilasi;

“Eng quvnoq va zukko farzandlar oilasi” – III darajali serjant Nuriddin Abdullayevlar oilasi;

“Eng ma’rifatparvar oila” – I darajali serjant Yusuf Bobomurodovlar oilasi;

“Eng bilimdon harbiy oila” – III darajali serjant Abror G’affarovlar oilasi.

Quyidagi harbiy oilalar g’oliblik o’rinlarga musharraf bo’ldi:

1-o’rin – kichik serjant Davron Murodovlar oilasi (*Toifalangan obyektlarni qo’riqlash qo’shinlari qo’mondonligi*);



Bahrom ABDURAHIMOV



2-o’rin – kichik serjant Baxtiyor Shomatovlar oilasiga (*Janubi-g’arbiy maxsus harbiy okrug*);

3-o’rin – kichik serjant Nosirbek Nishonovlar oilasi (*Sharqiy harbiy okrug*).

“Ibratli harbiy oila” ko’rik-tanlovi ishtirokchilariga diplom va qimmatbaho sovg’alar topshirildi. Shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan sovg’alar taqdim etildi.

Ko’rik-tanlov ishtirokchilari uchun Samarqand shahrining betakror go’shalariga sayohat uyushtirildi.

Zulfiya YUNUSOVA,
“Vatanparvar”

O'q otish sport turi

“Mergan kubogi” MUSOBAQASI YAKUNLANDI



O'zbekiston Respublikasi harbiylashtirilgan va huquqni muhofaza qiluvchi organlar harbiy xizmatchilari hamda xodimlari o'rtasida o'q otish sport turlari bo'yicha “Mergan kubogi” musobaqasi bo'lib o'tdi.



Mazkur musobaqada ishtirokchilar MV-9, PP-3, PM-3 hamda AK-3 yo'nalishlari bo'yicha o'zaro bellashdi. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazining o'q otish bazasida o'tkazilgan bellashuvda 70 nafardan ortiq erkak va ayol merganlar o'z mahoratini sinovdan o'tkazdi.

Musobaqaning dastlabki qismida jamoa vakillari qur'a tashlash marosimida ishtirok etib, o'z chiqish navbatlarini aniqlab oldi. “Mergan kubogi”





uchun bahslar ikki kun davom etdi. Mazkur musobaqa nafaqat kuch va g'ayrat, balki matonat, intizom, jasorat hamda merganlik mahoratini yanada yuksaltirishga qaratilgan haqiqiy sport ruhining yorqin namunasiga aylandi. Ushbu musobaqada sportchilar o'zlarining yuqori tayyorgarligi, aniqligi va mahoratlarini namoyon etdi.

Musobaqaning pnevmatik to'pponchadan 10 metr masofaga o'q otish dasturida:

erkaklar o'rtasida: 1-o'rin – kichik serjant Sodiqjon Abdullayev (*Mudofaa vazirligi*);

ayollar o'rtasida: 1-o'rin – kichik serjant Sitora Ergashboyeva (*Mudofaa vazirligi*).

Kichik kalibrli miltiqdan 50 metrga o'q otish dasturida:

erkaklar o'rtasida: 1-o'rin – kichik serjant Xurshidjon Oripov (*Mudofaa vazirligi*);

ayollar o'rtasida: 1-o'rin – kichik serjant Yana Fatxi (*Mudofaa vazirligi*).

Makarov to'pponchasidan 25 metr masofaga o'q otish dasturida:

erkaklar o'rtasida: 1-o'rin – mayor Kuanishboy Berdixanov (*Mudofaa vazirligi*);

ayollar o'rtasida: 1-o'rin leytenant Iroda Bekmirzayeva (*Ichki ishlar vazirligi*).



Kalashnikov avtomatidan 100 metrga o'q otish dasturida:

erkaklar o'rtasida: 1-o'rin – kichik serjant Jamoliddin Kamolov (*Mudofaa vazirligi*);

ayollar o'rtasida: 1-o'rin – katta leytenant Kumushoy Matyokubova (*Prezident Davlat xavfsizlik xizmati*).

Umumjamo'a hisobida:

1-o'rin – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi jamoasi;

2-o'rin – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati jamoasi;

3-o'rin – O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati jamoasiga nasib etdi.

G'olib va sovrindorlar kubok, medal hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Sherzod SHARIPOV
"Vatanparvar"

* Salomatlik -

Harbiy xizmat faqatgina qurol bilan muomala qilish yoki jismoniy tayyorgarlik emas, balki yuksak intizom, matonat, sog'lom tana va barqaror ruhiyatni o'zida mujassam qilgan sharaffi burchdir.

Kuchli armiyaning asosi avvalo sog'lom shaxsiy tarkibdir.

Zero harbiy xizmatchining salomatligi – bo'linmaning jangovar shayligi va umumiy xizmat samaradorligini belgilaydigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bois kasalliklar profilaktikasi har bir harbiy xizmatchining kundalik odatiga aylanishi shart.

Shaxsiy gigiyena – birinchi himoya qalqoni, intizom va madaniyat ko'rsatkichi. Jamoaviy xizmat sharoitida yuqumli kasalliklar tez tarqalishi mumkin. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun quyidagi oddiy, ammo samarali qoidalarga amal qilish lozim, chunki bular nafaqat shaxsiy salomatlik, balki butun jamoa xavfsizligini ta'minlaydi:


qo'llarni sovun bilan muntazam yuvish;

yotoqxonada va xizmat joylarida tozalikni saqlash;

shaxsiy gigiyena vositalaridan alohida foydalanish;

po'yabzal va kiyimlarni quritish va dezinfeksiya qilish.

Ayniqsa, jamoaviy yashash sharoitida tozalikka qat'iy amal qilish zarur. Sog'lom ovqatlanish, yetarli uyqu va muntazam jismoniy mashqlar immun tizimini mustahkamlaydi. Immunitetni mustahkamlash



organizmning tashqi ta'sirlarga qarshi turish qobiliyatini ta'minlaydi.

Harbiy xizmatchi ratsionida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

oqsilga boy mahsulotlar (*go'sht, tuxum, dukkaklilar*);

mavsumiy kasalliklar avj oladigan davrda vitamin va minerallarga boy bo'lgan mahsulotlarni iste'mol qilish; yetarli miqdorda suv ichish tartibiga amal qilish organizmning barqaror faoliyatini ta'minlaydi; shirinlik va ortiqcha yog'li taomlarni cheklash.

Yetarli uyqu (*kuniga 7-8 soat*) ham immun tizimini mustahkamlaydi. Uyqu yetishmasligi charchoq, diqqat pasayishi va kasalliklarga moyillikni kuchaytiradi.

KASALLIKLAR PROFILAKTIKASI – JANGOVAR SHAYLIK KAFOLATI

Tibbiy ko'rik va profilaktik emlash – erta ogohlik garovi!

Tibbiy nazorat – erta tashxis, samarali davo, rejali tibbiy ko'riklar kasalliklarning dastlabki bosqichini aniqlash imkonini beradi. Qon bosimi, yurak-qontomir tizimi, nafas olish organlari holatini muntazam tekshirib turish muhim.

Agar harbiy xizmatchida tana harorati ko'tarilishi, holsizlik yoki boshqa noxush alomatlar kuzatilsa, o'zboshimchalik bilan davolanmasdan, darhol tibbiyot xodimiga murojaat etishi va shifokor tibbiy tavsiyalariga qat'iy amal qilishi kerak.

Emlash tadbirlari esa ko'plab xavfli infeksiyalarning oldini olishda samarali vosita hisoblanadi. Shu sababli emlash tadbirlarida faol ishtirok etish lozim. Erta aniqlangan kasallik tez va asoratsiz bartaraf etiladi.

Shikastlanishlarning oldini olish. Harbiy o'quv mashg'ulotlari vaqtida shikastlanish va favqulodda holatlar (*mushak va bo'g'im jarohatlari*) ning oldini olish uchun xavfsizlik qoidalariga qat'iy amal qilish muhim:

avvaldan badanni to'liq qizdirish mashqlarini bajarish;

himoya anjomlaridan foydalanish;

ortiqcha jismoniy zo'riqishdan saqlanish;

birinchi tibbiy yordam ko'nikmalarini egallash. Bo'g'im va

mushak jarohatlarining oldini olish uzoq muddatli xizmat qobiliyatini saqlash demakdir. Birinchi tibbiy yordam ko'nikmalariga ega bo'lish esa favqulodda holatlarda juda zarur.

Ruhiy barqarorlik – salomatlikning muhim omili.

Jismoniy sog'liq bilan bir qatorda ruhiy barqarorlik ham katta ahamiyatga ega, ya'ni ruhiy barqarorlik – jismoniy sog'liqning ajralmas qismi. Stress, uzoq muddatli yuklama va mas'uliyat ruhiy holatga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Stressni boshqarish, jamoaviy hamjihatlik va o'zaro qo'llab-quvvatlash xizmat samaradorligini oshiradi. Shu bois jamoaviy hamjihatlikni mustahkamlash, o'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlash muhitini yaratish, nafas mashqlari va qisqa dam olish, zarurat tug'ilganda psixolog maslahatidan foydalanish muhim.

Xulosa qilib aytganda, kasalliklarning oldini olish bu harbiy xizmatchining shaxsiy intizomi, mas'uliyati va vatanparvarlik burchining ifodasidir. Sog'lom turmush tarziga amal qilish, tibbiy tavsiyalarga rioya etish va intizomni saqlash orqali har bir harbiy xizmatchi o'z jangovar tayyorgarligini mustahkamlaydi va bo'linmaning kuch-qudratini oshiradi.

Tibbiy xizmat podpolkovnigi

M. SHAROPOV,

Qarshi Sanitariya-epidemiologiya nazorati bo'limi boshlig'i

tuman boylik! *

ORTIQCHA TERLASH – ODDIY HOLMI YOKI KASALLIK?

Ko'pchilik insonlar o'zidagi ortiqcha terlashni oddiy hol deb qabul qiladi. Ammo ayrim hollarda bu tibbiy muammo ekanini bilishmaydi. Ortiqcha terlash fanda gipergidroz deyiladi.

Terlash nima uchun kerak?

Inson organizmi uchun terlash juda muhim jarayon. U tanani kun isib ketganida sovitishga yordam beradi va odam tana haroratini me'yorida ushlab turadi. Odatda odam kuniga 400-600 ml atrofida o'zidan ter ajratadi. Lekin ba'zi odamlarda bu jarayon me'yoridan oshib ketadi va ko'p terlash kuzatiladi.

Gipergidroz – bu hech qanday sababsiz odamning ortiqcha terlash holati bo'lib, u oddiy fiziologik terlashdan farq qiladi, ehtiyojdan ancha yuqori darajada namoyon bo'ladi. U inson tanasining qo'l kaftlari, oyoq panjalari, qo'liti osti va yuz sohalarida ko'proq kuzatiladi. Ko'pincha inson tinch holatda, havo harorati sovuq bo'lsa ham ko'p terlaydi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda taxminan 385 million kishi gipergidroz kasalligi bilan yashaydi. Bu yer yuzi aholisining 4-5 foizini tashkil etadi. Ayrim tadqiqotlarda

yer yuzida gipergidrozni umumiy tarqalish diapazoni 0,07 foizdan 9 foizgacha deb berilgan.

Nega bu muammo muhim?

Ortiqcha terlash inson uchun nafaqat jismoniy, balki ruhiy noqulaylik ham keltirib chiqaradi. Tashqi noqulaylik – kiyim doim nam bo'lib turadi, noqulay ter hidi paydo bo'lishi mumkin. Odam o'zini ishonchsiz his qiladi, stress va ijtimoiy qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin.

Sabablari nima? Gipergidroz ikki xil bo'ladi:

1. Birlamchi gipergidroz – aniq sababsiz paydo bo'ladi. Ko'pincha yoshlik davridan boshlanadi.

2. Ikkilamchi gipergidroz – boshqa kasalliklar bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, qandli diabet turli gormonal buzilishlar bilan kechuvchi kasalliklar, infeksiyalar.

Qachon shifokorga murojaat qilish kerak? Agar sizda tinch turgan holatingizda, ob-havo issiq

bo'lmaganda ham ortiqcha kuchli terlash, tungi terlash, bosh aylanishi, bosh og'rig'i kabi belgilar bilan birga ko'p terlash kuzatilsa, albatta shifokorga murojaat qilish kerak.


Gipergidroz har 20 kishidan bittasida mavjud kasallikdir. Lekin ko'p hollarda bemorlar tibbiy diagnostika qilinmaydi va davolanmay yuradi.

Kasallikni davolash mumkinmi?

Gipergidroz davolash mumkin bo'lgan kasallikdir. Uning yengil darajasi konservativ yo'llar bilan davolaniladi. Bunda maxsus antiperspirantlar, dori vositalari, elektr toki (*iontoforez*) bilan davolash va botoks inyeksiyalari qilish keng qo'llaniladi.

Kasallikning og'ir darajalari faqat jarrohlik yo'li bilan davolaniladi. Harbiy xizmatchilar orasida ham ushbu kasallikdan aziyat chekadiganlar ko'plab uchraydi.

Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospihospitalida gipergidroz kasalligining og'ir darajalaridan aziyat chekayotgan bemorlarni yuqori texnologik usullar yordamida jarrohlik yo'li bilan davolash usuli yo'lga



qo'yilgan. Bu yo'l bilan davolash muddati atigi 1-3 kuni tashkil qiladi va asosiysi kasallikning qaytalanish holati kuzatilmagan.

Natijada o'zingizga ishonch his qilasisiz, ortiqcha stress va ijtimoiy qiyinchiliklarga butunlay barham berasiz.

Xulosa qilib aytganda, gipergidroz – bu oddiy terlash emas, balki inson hayot sifatini pasaytiruvchi kasallik. Eng muhimi, uni yashirish emas, balki mutaxassisga murojaat qilish zarur. Sog'lom hayot o'zingizga e'tibor berishingizdan boshlanadi.

S. XAYDAROV,
Harbiy tibbiyot instituti o'qituvchisi

Dog biatloni musobaqasi

Kuch – birlikda, BELLASHUVDA ESA RAQOBAT...



Kuch tuzilmalari hamkorligidagi o'quv-mashg'ulotlar milliy armiyamiz qudratini mustahkamlash kafolatini beruvchi omillardan biridir. Sport musobaqalarini muntazam o'tkazish orqali kuzatiladigan sog'lom raqobat esa kuch tuzilmalari harbiy xizmatchilarining jismoniy hamda jangovar tayyorgarligini oshirib boradi.



Mudofaa vazirligi mutaxassis va xizmat itlarini tayyorlash markazida 9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan tashkillashtirilgan dog biatloni musobaqasi ham shular jumlasidan.

To'rtta ayol (*Mudofaa vazirligi va Milliy gvardiyadan ikkitadan*) va to'qqizta erkak (*Mudofaa, Ichki ishlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiyadan ikkitadan*), jami 13 ta jamoa tarkibida ellikka yaqin harbiy kinolog o'z xizmat itlari bilan 4 kun davomida sovrinli o'rinlar uchun kurash olib bordi. Musobaqa yakkalik va jamoaviy biatlon hamda 300 metrlik to'siqlar yo'lagidan o'tish shartlari bo'yicha o'tkazildi.

Kutilganidek, musobaqaning birinchi kuni murosasiz bahslarga boy bo'ldi. Erkaklar bellashuvlarida sovrinli o'rinlar uchun kurashda Mudofaa vazirligi va

Chegara qo'shinlari jamoasi a'zolari o'rtasida kechdi. Musobaqaning ayollar o'rtasidagi aynan shu yo'nalishida 1-o'rin ham Mudofaa vazirligi sharafiga himoya qilgan harbiy xizmatchilarga nasib etdi.

300 metrlik to'siqlar yo'lagidan o'tish bahslarining shaxsiy birinchiligi Suhrobjon Bog'ibekov (*Mudofaa vazirligi*) tomonidan zabt etildi. Mazkur natijaning e'tiborli jihati shundaki, mutaxassis va xizmat itlarini

tayyorlash markazida muddatli harbiy xizmat burchini o'taganiga hali ko'p vaqt bo'lmagan qatnashchiga nasib etdi. Suhrobjon ushbu shartda 1 daqiqa, 7,40 soniya natija ko'rsatib, musobaqaning yangi rekordini o'rnatdi.

9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan tashkillashtirilgan dog biatloni musobaqasi tomoshabinlarga boy bo'lganini alohida ta'kidlash o'rinli. Chirchiqlik yoshlar va dog biatloni bahslarining haqiqiy ixlosmandlari harbiy kinologlar mahorati va "Mona", "Elgiz", "Berg", "Klif", "Gita", "Rokki" kabi xizmat itlarining harakatlarini olqishlar bilan kuzatib borishdi.

Yakkalik bahslari.

Erkaklar. Dog biatloni. 1-o'rin kichik serjant Jonibek Faxriddinov (*DXX Chegara qo'shinlari*). 2-o'rin Shohrux Javqochev (*Mudofaa vazirligi*). 3-o'rin Doston Chinpovlatov (*DXX Chegara qo'shinlari*).

300 metrlik to'siqlar yo'lagidan o'tish. 1-o'rin kichik serjant Suhrobjon Bog'ibekov (*Mudofaa vazirligi*). 2-o'rin II darajali serjant Daler Ikromov (*Mudofaa vazirligi*). 3-o'rin kichik serjant Qahramon G'ofurov (*DXX Chegara qo'shinlari*).

Erkaklar. Dog biatloni. Estafeta. 1-o'rin Mudofaa vazirligi. 2-o'rin Milliy gvardiya. 3-o'rin DXX Chegara qo'shinlari.

Erkaklar o'rtasidagi yakuniy jamoaviy natijalar: 1-o'rin Mudofaa vazirligi. 2-o'rin DXX Chegara qo'shinlari. 3-o'rin Milliy gvardiya.

Ayollar. Yakkalik bahslari. Dog biatloni. 1-o'rin kichik serjant Irodaxon Olimova (*Mudofaa vazirligi*). 2-o'rin kichik serjant Oydin Ikromova (*Milliy gvardiya*). 3-o'rin II darajali serjant Mohira Niyozova (*Milliy gvardiya*).

Ayollar. 300 metrlik to'siqlar yo'lagidan o'tish. 1-o'rin III darajali serjant Saida Abdumominova (*Mudofaa vazirligi*). 2-o'rin III darajali serjant Viktoriya Morozova (*Mudofaa vazirligi*). 3-o'rin leytenant Dilbarxon Shukurova (*Milliy gvardiya*).

Ayollar. Dog biatloni. Estafeta. 1-o'rin Mudofaa vazirligi 1-jamoasi. 2-o'rin Mudofaa vazirligi 2-jamoasi. 3-o'rin Milliy gvardiya.

Ayollar o'rtasidagi yakuniy jamoaviy natijalar: 1-o'rin Mudofaa vazirligi 1-jamoasi. 2-o'rin Mudofaa vazirligi 2-jamoasi. 3-o'rin Milliy gvardiya.

O'z jamoalari sharafiga munosib himoya qilgan g'olib hamda sovrindorlar kubok, diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Asror RO'ZIBOYEV,
"Vatanparvar"

Bellashuv

TALABALAR O'RTASIDA SPORT MUSOBAQASI



Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi hamda Toshkent shahri va viloyatida faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta'lim muassasalari o'rtasida imzolangan memorandumga muvofiq, keng ko'lamli ma'naviy-ma'rifiy hamda harbiy-vatanparvarlik tadbirlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.



Ushbu hamkorlikka ko'ra, Toshkent shahri va viloyatidagi xorijiy oliy ta'lim muassasalarining 8 ta filial jamoalari Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Besh muhim tashabbus" doirasida tashkil etilgan "Harbiy-vatanparvarlik o'yinlari"da o'zaro bellashdilar.

Tadbir Toshkent viloyati Olmaliq shahrida joylashgan harbiy qismda tantanali ochilish marosimi bilan boshlandi. Unda mehmonlar harbiy orkestrning jangovar kuy-qo'shiqlari, faxriy qorovulning ko'rgazmali chiqishlari va harbiy xizmatchilar tomonidan namoyish etilgan qo'ljangi elementlaridan bahramand bo'ldi.

Harbiy qism o'quv-moddiy bazasida tashkil etilgan musobaqalarda talabalar jismoniy tayyorgarlik va mahoratni talab etuvchi AK-74 qurolini to'liq va noto'liq qismlarga ajratish,

to'siqlardan o'tish, pnevmatik quroldan o'q otish hamda granata uloqtirish shartlari bo'yicha o'zaro kuch sinashdi.

Murosasiz va shiddatli kechgan bellashuvlar yakunida natijalar e'lon qilindi. Unga ko'ra, 1-o'rinni Milliy tadqiqotlar texnologik universiteti jamoasi, 2-o'rinni D.I. Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiyalari universitetining Toshkent shahri filiali jamoasi, 3-o'rinni esa G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahri filiali jamoasi egalladi.

G'olib va sovrindor jamoalarga qimmatbaho va esdalik sovg'alar topshirildi.

Shahnoza SULTONOVA
TOQQQ matbuot xizmati

Vatanparvarlik tadbirlari

BURCH, JASORAT, MATONAT

Prezidentimizning 2026-yil 16-apreldagi "9-may – Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan mamlakatimizning barcha hududlarida harbiy prokuratura organlari tomonidan qator tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, harbiy prokuratura organlari rahbariyati va jamoasi faxriylar hamda qator davlat organlari, kuch tuzilmalari va jamoatchilik tashkilotlari vakillari hamkorlikda "Xotira maydoni"da bo'ldi.

"Motamsaro ona" yodgorligi poyiga gulchambar qo'yilib, Vatan himoyasi yo'lida halok bo'lgan fidoyilar xotirasiga hurmat bajo keltirildi.

So'ng muqaddam prokuratura organlari tizimida ko'p yillar samarali mehnat qilgan, ayniqsa Ikkinchi jahon urushi davrida janggohlarda jasorat ko'rsatgan, shu bilan birga front ortida sadoqat bilan xizmat qilib, qonuniylikni ta'minlagan marhum prokuratura organlari faxriylarining qabri ziyorat qilindi. Marhum faxriylarning oila a'zolari bilan suhbat o'tkazilib, ularning holidan xabar olindi.

Bundan tashqari, umumta'lim maktablarida va mahallalarda o'quvchi-yoshlar ishtirokida "Burch, jasorat, matonat!" shiori ostida uch avlod uchrashuvlari, vatanparvarlik tadbirlari, ochiq muloqotlar tashkil etildi.

Shuningdek, "Harbiy prokuror kubogi" uchun "Zakovat" intellektual o'yini va turli sport musobaqalari o'tkazilib, g'olib va sovrindorlar tantanali ravishda taqdirlandi.

Adliya podpolkovnigi
G'iyosiddin RAHMONOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy
prokurorining yordamchisi

Ogohlik



Yong'indan xabar beruvchi moslamalar harbiy qism va muassasalardagi ombor, xizmat xonalari, ishlab chiqarish sexlari va boshqa yong'inga xavfli bo'lgan binolarda yong'in xavfsizligini ta'minlash kabi muhim vazifani bajaradi.

Yong'indan xabar beruvchi moslamalar binolarda favqulodda yong'in sodir bo'lganda, uni tezda bartaraf etish, binodagi shaxsiy tarkib, buyum va jihozlarni xavfsiz joyga evakuatsiya etilishida tezkor choralar ko'rish uchun harbiy qism bo'yicha navbatchilarni ogohlantiradi.

Yong'indan xabar beruvchi uskunalar, ularning ko'rinishi va hajmidan qat'i nazar quyidagi moslamalardan iborat.

YONG'INDAN XABAR BERUVCHI MOSLAMALAR

1. Ogohlantiruvchi moslama – bu bino ichida yuqori issiqlik yoki tutun hosil bo'lganda yuqori sezuvchanlik xususiyatiga ega hisoblanib, binoda yuqori darajadagi issiqlik yoki tutun hosil bo'lgani to'g'risida nazorat-qabul qilish moslamasiga signal yuboradi.

2. Nazorat-qabul qilish moslamasi – ogohlantiruvchi moslamalardan kelgan signalni qabul qilib, moslamada o'rnatilgan ko'rsatkich kalitlar orqali qaysi binoda (*xonada*) yong'in sodir bo'lgani to'g'risida ovoqli signal orqali navbatchilarni ogohlantiradi.

3. Yong'in haqida ogohlantiruvchi signal – navbatchilar, o'z navbatida sodir bo'lgan yong'in to'g'risida yong'in haqida ogohlantiruvchi signal yoki aloqa vositasi orqali yong'in o'chirish bo'linmalari va shaxsiy tarkibga belgilangan tartibda yong'in sodir bo'lgani to'g'risida xabar beradi.

Yong'indan xabar beruvchi moslamalar tizimini asossiz ravishda o'chirib qo'yish, ularni o'zgartirish, o'zboshimchalik bilan o'rnini almashtirish taqiqlanadi.

Sutkalik navbatchilar yong'indan xabar beruvchi moslamalarning sozligini doimo nazorat qilish, favqulodda yong'in sodir bo'lganda voqea joyiga zudlik bilan yong'in o'chirish bo'linmasini chaqirish,



signalni qabul qilish pultidagi kalit qaysi bino (*xona*)dagi yong'in moslamaga tegishli ekanini bilishga majbur.

Yong'indan xabar beruvchi moslamalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari olib borish maqsadida moslamalar vaqtinchalik o'chirilganda – bu to'g'risida binoga mas'ul shaxs tomonidan harbiy qism uy-joydan foydalanish xizmati boshlig'i va yong'in o'chirish bo'linmasi ogohlantirilishi lozim.

Podpolkovnik
P. BOYQO'ZIYEV,
Samarqand garnizoni
yong'in nazorati
inspeksiyasi boshlig'i

Jahon kubogi

MUNOSIB ISHTIROK va muvaffaqiyat



Belarus Respublikasi poytaxti Minsk shahrida sportning kemamodel turi bo'yicha jahon kubogi musobaqasi bo'lib o'tdi.

O'n bitta davlat – Germaniya, Ispaniya, Litva, Rossiya, Belarus, Turkiya, Gruzija, Vyetnam, Armaniston, O'zbekiston va Qozog'istondan ishtirok etgan 160 dan ortiq sportchi ushbu nufuzli musobaqada o'zlari tomonidan yasalgan kema modellarining sifati hamda suvda masofadan turib boshqarilishi imkoniyatlarini namoyon etdi.

Quvonarlisi, do'stona va murosasiz kechgan jahon kubogi bahslarida "Vatanparvar" tashkiloti sportchilaridan iborat O'zbekiston terma jamoasi

mamlakatimiz sharafini munosib himoya qilib, bir qator medallar shodasi bilan qaytib keldi. Jumladan, Marat Xakimzanov 1 ta oltin, Albina Xakimzanova 2 ta kumush va Viktor Yundin 1 ta bronza medalga sazovor bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti jamoasi ushbu sportchilarni samimiy muborakbod etib, kelgusida bundan-da yuksak yutuqlarga erishishini tilaydi.



O'zbekiston chempionati



ENG YAXSHI BIATLONCHILAR ANIQLANDI

Toshkent viloyati Chirchiq shahrida yoshlar o'rtasida sportning yozgi biatlon turi bo'yicha O'zbekiston chempionati musobaqasi o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan tashkil etilgan ushbu musobaqada respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan 77 nafar sportchi to'rtta mashqda bellashdi.

Musobaqada sportchilardan turli masofalarda belgilangan joyga yugurib kelib, yotgan va turgan holda pnevmatik miltiqdan nishonni mo'ljalga olishlari talab etildi.

Qizg'in va murosasiz kechgan yozgi biatlon bo'yicha O'zbekiston chempionati musobaqasi quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

Erkaklar o'rtasida, "4 km – sprint" mashqida:
1-o'rin: Suhrob Rajabov (Toshkent v.);
2-o'rin: Rauan Raimqulov (Toshkent sh.);
3-o'rin: Islom Zoirov (Toshkent v.).

"6 km – pasyut" mashqida:
1-o'rin: Suhrob Rajabov (Toshkent v.);
2-o'rin: Islom Zoirov (Toshkent v.);
3-o'rin: Rauan Raimqulov (Toshkent sh.).

"2,4 km – mastart" mashqida:
1-o'rin: Mashhurbek Mamedov (Farg'ona v.);
2-o'rin: Muhammadqodir Yo'ldoshev (Farg'ona v.);
3-o'rin: Imron Memetov (Toshkent v.).

"Shaxsiy birinchilik" mashqida (7 km):
1-o'rin: Suhrob Rajabov (Toshkent v.);
2-o'rin: A'zamjon Qutbiddinov (Namangan v.);
3-o'rin: Islom Zoirov (Toshkent v.).

Qizlar o'rtasida "3 km – sprint" mashqida:

1-o'rin: Muslimaxon Ergasheva (Namangan v.);
2-o'rin: Despina Bandaletova (Toshkent v.);
3-o'rin: Zuhra Ro'ziyeva (Xorazm v.).

"5 km – pasyut" mashqida:
1-o'rin: Despina Bandaletova (Toshkent v.);
2-o'rin: Inobat Tojiboyeva (Toshkent v.);
3-o'rin: Mahliyo Muhammadaliyeva (Namangan v.).

"1,8 km – mastart" mashqida:
1-o'rin: Madina No'monova (Toshkent v.);
2-o'rin: Marjona Hakimjonova (Farg'ona v.);
3-o'rin: Dinara Xudoybergenova (Xorazm v.).

"Shaxsiy birinchilik" mashqida (6 km):
1-o'rin: Inobat Tojiboyeva (Toshkent v.);
2-o'rin: Despina Bandaletova (Toshkent v.);
3-o'rin: Mahliyo Muhammadaliyeva (Namangan v.).

Umumjamo'a hisobida:
1-o'rin: Toshkent viloyati;
2-o'rin: Namangan viloyati;
3-o'rin: Xorazm viloyati jamoalari.

Musobaqa yakunida g'oliblar va yuqori o'rinlarni qo'lga kiritgan sportchilar "Vatanparvar" tashkilotining diplom, medal va qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi.

Ochiq chempionat

MOTOKROSS SPORTCHILARI SARALANDI

Jizzax shahrida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan sportning motokross turi bo'yicha O'zbekiston ochiq chempionati va birinchiligi (3-final bosqichi) musobaqalari o'tkazildi.



Respublikamizning turli hududlaridan qatnashgan 100 dan ziyod sportchilar "65 sm³", "85 sm³", "125 sm³", "500 sm³", "ChZ-3503", "750 sm³", "Xitoy", "Faxriylar" sinflarida sport mototsikllarida bellashdi.

Qizg'in va murosasiz kechgan ekstremal poyga bahslari quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

BIRINCHILIKNING FINAL G'OLIBLARI:

"125 sm³" (O'smirlar) sinfida:
1-o'rin: Zufarbek Bahodirov (Buxoro v.);
2-o'rin: Saidbobojon Saidov (Navoiy v.);
3-o'rin: Yerlan Kurallbayev (Qoraqalpog'iston Respublikasi).

"85 sm³" sinfida:
1-o'rin: Oybek Qobuljonov (Sirdaryo v.);
2-o'rin: Yaroslav Maslennikov (Navoiy v.);
3-o'rin: Sherxon Suvonov (Navoiy v.).

"65 sm³" sinfida:
1-o'rin: German Usov (Toshkent sh.);
2-o'rin: Abduvosid Abdurkarimov (Surxondaryo v.);
3-o'rin: Davron Kamolov (Jizzax v.).

Jamo'a hisobida:
1-o'rin: Navoiy viloyati;
2-o'rin: Sirdaryo viloyati;
3-o'rin: Buxoro viloyati jamoalari.

O'ZBEKISTON CHEMPIONATI FINALI G'OLIBLARI:

"125 sm³" (Katta yoshlilar) sinfida:
1-o'rin: Jasurbek Samadov (Buxoro v.);
2-o'rin: Bekzod Halimboyev (Buxoro v.);
3-o'rin: Bogdan Saturyan (Navoiy v.).

"ChZ-3503" sinfida:
1-o'rin: Rashid Ibragimov (Toshkent sh.);
2-o'rin: Marsel Galiyev (Jizzax v.);
3-o'rin: Shevket Suleymanov (Toshkent v.).

"500 sm³" sinfida:

1-o'rin: Bekzod Halimboyev (Buxoro v.);
2-o'rin: Jasur Samatov (Buxoro v.);
3-o'rin: Andrey Sazonov (Toshkent v.).

"500 sm³" 35+ sinfida:

1-o'rin: Andrey Sazonov (Toshkent v.);
2-o'rin: Sergey Vinogradov (Toshkent v.);
3-o'rin: Rashid Ibragimov (Toshkent sh.).

"500 sm³" (Xitoy) sinfida:

1-o'rin: Dilshodjon Ne'matjonov (Farg'ona v.);
2-o'rin: Dilmurod Rahimov (Toshkent sh.);
3-o'rin: Timur Karimbekov (Toshkent sh.).

"750 sm³" sinfida:

1-o'rin: Viktor Lavrov, Bedriy Akimov (Toshkent v.);
2-o'rin: Sohijjon Jabborov, Tohirjon Sodiqov (Xorazm v.);
3-o'rin: Asror Hayitov, Adham Temirov (Navoiy v.).

"Faxriylar" sinfida (51 yoshdan 59 yoshgacha):

1-o'rin: Marsel Galiyev (Jizzax v.);
2-o'rin: Anvar Alimov (Sirdaryo v.);
3-o'rin: Dilshod Ne'matjonov (Farg'ona v.).

"Faxriylar" sinfida (60 yosh va undan kattalar):

1-o'rin: Nikolay Sharabayev (Xorazm v.);
2-o'rin: Igor Bochkaryov (Namangan v.);
3-o'rin: Igor Sichyov (Toshkent sh.).

Jamo'a hisobida:

1-o'rin: Toshkent viloyati;
2-o'rin: Toshkent shahri;
3-o'rin: Buxoro viloyati jamoalari.

Film taqdimoti



Katta EKRANGA CHIQDI

Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan hamda yuksak qahramonlik namunalarini ko'rsatgan ajdodlarimiz xotirasini yod etish, ularning jasorati va fidoyiligiga hurmat bajo keltirish xalqimiz uchun muqaddas burch sanaladi. Vatan ozodligi va bugungi tinch-osuda hayot yo'lida jonfido qilgan mard bobolarimizning matonati hech qachon unutilmaydi.

Xabaringiz bor, 9-may – G'alabaning 81 yilligi munosabati bilan "O'zbek arsloni" badiiy filmi keng jamoatchilikka namoyish etildi. Film urushning og'ir sinovlarini boshdan kechirib, Belarus o'rmonlarida partizanlik harakatida jasorat ko'rsatgan o'zbek o'g'loni Mamadali Topvoldiyev hayotiga bag'ishlangan.

Mazkur kartina tomoshabinlar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Filmning ilk namoyishi respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan kino ixlosmandlarini bir joyga jamladi. O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyining katta va yozgi zallari minglab tomoshabinlar bilan gavjum bo'ldi.

Shuningdek, bir vaqtning o'zida barcha viloyatlar hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida ham film namoyishlari tashkil etilib, o'n minglab yurtdoshlarimiz ushbu tarixiy kartinani tomosha qilish imkoniga ega bo'ldi. Taqdimot marosimi yuqori kayfiyat va bayramona ruhda o'tdi. Taqdimot namoyishi jarayonida bir necha epizodlar tomoshabinlar tomonidan olqishlar bilan kutib olindi. Bu holat "O'zbek arsloni" kinoasarining muvaffaqiyatiga, ijodkorlariga bildirilgan munosib baho bo'ldi.

Tadbirda Prezident maslahatchisi Xayriddin Sultonov, O'zbekiston Kinematografiya agentligi direktori Shuhrat Rizayev, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek Hasanov, mudofaa vaziri o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev, film ijodkorlari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Shuningdek, film qahramoni Mamadali Topvoldiyevning Rishtondan tashrif buyurgan yaqinlari va qarindoshlari ham tadbir mehmonlari safidan o'rin oldi.

"O'zbek arsloni" filmi xalqimizning mardlik, vatanparvarlik va jasorat kabi yuksak qadriyatlarini tarannum etuvchi, yosh avlodni milliy g'urur va tarixiy xotiraga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi muhim ekran asari sifatida e'tirof etilmoqda.

Kamoliddin ASROR

Bilasizmi?

Suv ostidagi muzey



O'lkashunoslik muzeylariga borgansiz. Ammo okean tubida joylashgan San'at muzeyi haqida hech eshitganmisiz?

Meksika qo'ltig'ida suvosti San'at muzeyi joylashgan. Undan turli shakl-shamoyildagi beton va metall haykallar o'rin olgan. Ekspонатlar okean ekologiyasi bilan uyg'unlik hosil qilgan.

Hayratlanarlisi, Meksika qo'ltig'i suv ostidagi muzeyda, ekspонатlar

statik xarakterga ega emas. "Muzey buyumi" sifatida qolib ketmaydi. Aksincha, haykallar ustida marjonlar o'sadi. Atrofida baliqlar va dengiz jonzotlari umrguzaronlik qiladi. Shunday qilib, san'at asarlari evrilishni boshdan kechiradi. Alaloqibat, sun'iy obyektlar tabiiy rif

(marjon qoyalari)ga aylanadi.

Muzeyga qanday qilib tashrif buyurish mumkin, degan savol tug'ilishi turgan gap. Sayyohlar sho'ng'ish yoki snorkeling orqali tirik ekotizimning bir bo'lari bo'lgan san'at asarlarini tomosha qilishlari mumkin. Ma'lumot uchun, "snorkeling" tushunchasi suv yuzasida niqob va nafas trubkasidan foydalangan holda suzishni anglatadi.

Xo'sh, nega bunday g'ayrioddiy, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan ekspozitsiya barpo etilgan? Muddao nima?

Muzey san'at asarlarini ommalashtirish bilan bir qatorda ekologik barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Fauna uchun sun'iy boshpana vazifasini o'taydi. Tabiiy ekotizimni tiklashga yordam beradi.

Tabiat va san'at kombinatsiyasiga guvoh bo'lishni istasangiz, albatta Meksika qo'ltig'i tubida joylashgan San'at muzeyi tomon oshiqing. Chunki bunday noyob va g'ayrioddiy manzara har kun, har yerda ham topilavermaydi.

**Ulug'bek SHAROBIDDINOV,
O'ZJOKU talabasi**



MUASSIS
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR

**Tahririyat kengashi:**

general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Ulug'bek Fattaxov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

ko'tibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Bobur Elmurodov

Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva

Musahhih: Zebo Sariyeva

Buyurtma: V-6127

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 33 823 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyat-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan
tahririyati bilan bog'lanish
uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

www.mudofaa.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz

[mudofaavazirligi](https://www.facebook.com/mudofaavazirligi)

[mudofaavazirligi](https://www.instagram.com/mudofaavazirligi)

www.youtube.com/c/UzArmiya